Agar kishida mana shu sifatlar bo'lsa, u hech qachon yomon yo'llarga kirmasdan, o'zini faqat oilasi, jamoasi va jamiyat ravnaqini ta'minlovchi ishlarga bag'ishlaydi. Binobarin, hayotning har bir davri o'ziga xos go'zallikka ega. Shu m a'noda sportchi talabalik yillarida puxta bilim olishi, umuminsoniy xislatlarni o'zida shakllantirishi, ijtimoiy hayotda faol bo'lishi hamda qiyinchiliklardan qo'rqlmaydigan shaxs bo'lib yetishishi uchun o'z xarakterini toblab borishi lozim. Buning uchun sportchi o'zida quyidagi xarakter xislatlarni shakllantirishga erishmog'i shart: 1)hayotning hamma sohalarida sermahsul ruhiy faollik holatini vujudga keltirishga odatlanishi; 2) yaxshi xulq, ijodiy bilim va sportchilar uchun zarur xislatlarni egallashi; 3) hayotda qiyin va murakkab sharoitlarga duch kelganida yoki muammoli masalalami hat etishda, o 'z maqsadiga erishishda vijdonli bo 'lishi hamda aniq va to'g'ri yo'lni tan lay bilishi. Ba'zi bir sportchilar o'zining xarakteriga mos sport turini tanlashda xatolikka yo'l qo'yadi. Masalan, agar talabalarda insonparvarlik histuyg'ulari yaxshi rivojlangan bo'lsa, sportning tajovuzkor harakat qiladigan turlari bilan shug'ullanmagani maqsadga muvofiq. Lekin sportning ayrim turlari uchun tajovuzkorlik juda zarur. Busiz sportda g'alabaga erishish juda qiyin kechadi. Ba'zi bir sportchilar yuqori jism oniy tayyorgarlikka ega b o 'lsalar-da, sport m usobaqalarida tajovuzkor harakatlar ko'rsata olishmaydi. Lekin shu jamoadagi do'sti o'rtacha jismoniy tayyorgarligi bilan musobaqada tajovuzkor harakatlar yordamida yuqori natijalarga erisha oladi. Shuningdek, ba'zi sportchilar o'qish va mashqlar jarayonida kattalar va murabbiylar tomonidan yetarli tarbiya olmaganligi sababli ulardagi vijdonsizlik va bedoblik sifatlari tez rivojlanadi. Yoki sportchi yoshining o'tishi va sportda ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrayverishi natijasida oxiri sport bilan tamoman xayrlashadi. Biroq shundan keyin ham o'zining tajovuzkorlik harakatlarini to'xtata olmaganidan sportchi ruhiy qiyinchiliklarga ko'p uchraydi. U o'zining xulq-atvorini o'zgartira olmaganidan, boshqa odamlardek osoyishta hayot kechira olmay juda qiynaladi. Shuning uchun murabbiy sportchilarni tajovuzkorlik harakatlarini faqat raqibga qarshi sport musobaqasi qoidalari asosida qo'llashga odatlantirishi lozim. Fransuz faylasufi K.A. Gelveziy aql, yetuk iste'dod, zo'r talant, yaxshi fazilat,

yaxshi xislat faqat tarbiya natijasi deb qaragan. Buning uchun ta'lim-tarbiya va sport muassasasi rahbarlari hamda murabbiylar sportchilar yashayotgan ijtimoiy muhitni va sport mashg'uloti jarawww.ziyouz.com kutubxonasi yonini yanada go'zalroq qilishi, sportchilarni odamlarni ehtiyyot qilish va sevishga odatlantirishi, ularning aqliy va ma'naviy his-tuyg'ularini yanada o'stirishi, sportchilarda keng qamrovli dunyoqarashni tarkib toptirishi, ularni insondagi go'zallikni his qilish kabi fazilatlarga ega bo'lishga odatlantirishi lozim. Sportchi xarakterining rivojlanishi faol sport faoliyatini jarayonida hamda jismoniy mashq harakatlariga bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Sport faoliyatini jarayonida sportchilarga xos bo'lgan xarakter-xislatlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, bu xarakter-xislatlar sportchi ruhiyatining hamma tomonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. U sportchining harakatlarida, qiliqlarida, fe'l-atvorida takrorlanib turadi. Shu bilan birga, xarakterning ayrim xislatlari sportchi ruhiyatining biror jihatida, ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi. Masalan, sportchining o'ziga bo'lgan talabchanligi, tanqidiy qarashi, fahmi, farosati, kuzatuvchanligi, xushyorligi singari xarakter xislatlari sportchining aqliy va sport faoliyatida yaqqol sezilib turadi. Sportchidagi quvnoqlik, mehribonlik, sportdagi har qanday adolatsizlik va nohaqliklarga nisbatan sezgirlik singari sifatlari ko'proq sportchining hissiyotlarida o'z aksini topadi. Ba'zi bir sportchilar irodasining bo'shligi yoki xarakterining zaifligi tufayli arzimagan to'siq va kamchiliklarni ham yenga olmaydi. Bunday sportchilar qo'rq o q , ju r 'atsiz b o 'lib , ozgina qiyinchilik yoki muvaffaqiyatsizlikka duch kelsalar, o'zlarining qilayotgan mashqlarini m a'lum bir m uddatgacha to 'x tatib qo'yadilar, o 'z q arorlarini o'zgartiradi, ko'zlagan maqsadidan voz kechish uchun ham tayyor bo'ladi. Ular sport faoliyatida talab qilingan darajada sabot, sabr-toqat, matonat va chidam ko'rsata olmaydilar. Bunday sportchilar yuraksiz, dangasa, «ko'ngli bo'sh» bo'ladilar. ularning xatti-harakatlarini, odatda, o'zlaridan ko'ra ko'proq sharoit idora qiladi. Bunday xarakterli sportchilar umidsizlikka moyil bo'lib, sport turlarini tez-tez o'zgartirib turadilar, lekin birorta sport turidan yaxshi ko'rsatkichlarga erisha olmaydilar, chunki ularda iroda va qat'iyat yetishmaydi. Ular hamma vaqt, ham ma yerda, ham m a sportchilarda faqat salbiy, yom on tom onlarnigina

ko'radilar xolos. Ular o'zlaridagi barcha shaxsiy kamchiliklarga murabbiylar aybdor deb hisoblaydilar. Bunday xarakterli sportchilar beparvo, ko'ngilchanlikka moyil bo'lishadi. Murabbiylar bunday xarakter xislatlariga ega bo'lgan sportchilar bilan alohida tarbiyaviy ishlar olib borishi va sportchining xatti-harakatlaridagi yaramas qiliqlami yo'qotishga, aksincha, ularda ijobiy, foydali odatlami [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi mustahkamlashga yordam beradigan vositalarni izlab topishlari lozim. Sportchi xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan xususiyat emas. Har bir sportchining xarakteri ijtimoiy muhit, sport faoliyati va musobaqalar ta'siri bilan ta'lim va tarbiya jarayonida yoki o'z-o'zini tarbiyalash vositasida taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Shu sababli har bir sportchi ma'lum yoshdan boshlab, o'z xarakteri va uning ayrim xislatlari uchun o'zi javobgardir. Sportchi o'z xarakterini tarbiyalashda yaxshi fazilatlar va olg'a yetaklovchi barhayot g'oyalami o'zida mujassamlantirib bormog'i lozim. Shu bilan bir vaqtida sportchi o'z xarakteridagi salbiy jihatlarni tan olishi, kam chiliklariga iqror bolishi zarur. O'z kamchiliklarini o'zi tan olishi sportchi xarakterining ijobiy jihatidir. Bu sportchini o'zini-o'zi tarbiyalash yo'liga boshlaydi. O'z kamchiliklarini ko'ra bilmagan sportchi g'alaba qilishga, o'sishga, kamolotga erishishga va yaxshi sportchi bo'lib yetishishga layoqatsiz bo'ladi. Sportchining shaxs sifatida rivojlanishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Chunki bir avlod sportchilar tomonidan egallangan xususiyatlar ikkinchi avlod sportchilariga o'tadi va ular tomonidan o'zlashtiriladi. Shuning uchun har kungi tarbiyaviy faoliyat kelajakni nazarda tutgan holda olib borilishi kerak. Sportchi o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilishi, o'zini-o'zi kuzatishi va o'zio'ziga baho berishi alohida ahamiyatga ega. O'zi-o'ziga baho berish jarayoni sportchining o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda u yoki bu maqsadni qo'yish bilan bog'Miq. O'zi-o'ziga to'g'ri baho berish sportchida m'a'naviy qoniqish hissini kamol toptiradi, o'z qadrqimmatini ardoqlashga, o'z qadr-qimmatiga ishonishga yordam beradi. Murabbiy sportchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida uning ta'sirchanligi va hissiyotini ham hisobga olishi kerak. Chunki ularning o'zgarishi sabablari tashqi ta'sirlar bilan bir qatorda sportchining o'ziga ham bog'liqdir.

Affektiv reaksiyalarning paydo bo'lish qonuniyatlarini anglash va ularni to'g'ri hal etish uslublarini bilish sportchi xulqatvoridagi ijobiy jihat — axloqiylikni ta'minlabgina qolmay, turli qiyin va janjalli vaziyatlardan chiqishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday bilimlarga egalik sportchiga o'z ruhiy salomatligini saqlab qolishga ham imkon beradi. Sportchilaming guruh va jamoada, o'zлari yashab turgan jamiyatda qabul qilingan axloqiy talablami ado etishlari boshlang'ich ma'naviy hislardan tarkib topgan murakkab, sermazmun va kuchli hislarga; o'rtoqlik va do'stlik hislariga; muhabbat, rashk, yoqtirmaslik, nafrat www.ziyouz.com kutubxonasi hislariga; insonparvarlik, vatanparvarlik hislariga; ishchanlik munosabatlariga, huquq va burchlar tengligiga asoslanishi lozim. Shuningdek, sportchilar mashq, mashg'ulot va musobaqalarda biror g'arazli, xudbin maqsadni ko'zlamasligi; jamiyat foydasiga bo'ladigan ishlarni bajarayotganlarida yuksak ma'naviy hislarga toMib-toshib, buni o'zлari uchun baxt deb bilishlari kerak. Sportchining ma'naviy burch hissi sport mashg'uloti va o'qish jarayonida yanada ko'proq, xilma-xil holatlarda namoyon bo'ladi. Sport amaliyotida shu narsa aniqliki, sportchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida murabbiy va o'qituvchilar hamisha tashvish, xursandlik va mammuniyat his qiladilar. Bundan tashqari, yuksak m a'naviy mas'uliyat ularning zimmasida bo'ladi. Sportchilar kechiradigan ma'naviy hislar shaxsiy tuyg'ular, ya'ni sportchining shaxsiy xatti-harakatiga bog'liq bo'lgan hislar bilangina cheklanib qolmaydi. Sportchidagi m a'naviy hislarning-xususiyati shundan iboratki, kishilarning xatti-harakati jam iyat axloqiy me'yorlariga muvofiq bo'lgan taqdirdagina u xursand bo'ladi, bu xattiharakatlar jam iyat axloqiy m e'yorlariga nomuvofiq bo'lganida g'azablanadi. Sportchilardagi tashabbuskorlik ularning boshqa sportchilarda tug'ilgan hislarni o'z tuyg'u-kechinmalaridek qabul qilish qobiliyatlarida ham ifodalanadi. Sportchilar kishilarga xayrixoh bo'lib, ularning xursandchiligiga va g'am-g'ussasiga, do'stlari va jamoadoshlarining dushmanlariga nisbatan g'azab va nafratiga sherik bo'lishdan o'zlarini chetga tortmaydilar. Yuqoridagi firklardan kelib chiqib, shunday xulosa ch iq arsh mumkinki, sportchining barcha individual-psixologik hususiyatlari asosan sport faoliyati

jarayonida nam ayon bo'ladi. X arakter, temperament, qobiliyat va qiziqish kabilar sportchining individual xususiyatlaridir. Sportchilar turli sport faoliyatlarida, mashg'ulotlarda biror mashq yoki sport o'yinlarini tez yoki sekin bajarishlarida taktik xarakatlar rejasini amalda katta mahorat bilan namoyish etishda birbirlaridan farq qiladilar. Masalan, bir sportchi 100 metrli masofaga sekinroq chopsa, ikkinchi bir sportchi bu masofani tezlikda yugurib o'tadi. Ayrim sportchilaming sport faoliyati samaraii bo'lsa, boshqa bir sportchilaming faoliyat natijalari kutilganidek samara bermaydi. Sportchilar faoliyatining mana shu xususiyatiga ko'ra, individualpsixologik xususiyatlari farqining o'ziga xos jihatlarini aniqlash «Sport psixologiyasi» fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Tabiiyki, sportchilar har xil temperamentli bo'lib, ularning har biri g'alabaga o'z yo'li bilan boradi. Jamoada hech qachon 6 ta .bir xil gimnastikachi bo'lmaydi, har qanday holatda ham hech kim birovning eng yaxshi sifatini takrorlay olmaydi. Har xil fazilatlarni o'zida to'la ma'noda birlashtira oladigan gimnastikachilar haqida orzu qilish mumkin xolos. Albatta har bir gimnastikachi hal qiluvchi daqiqalarda barcha sportchilarga xos yorqin jihatlarni to'liq namoyon etishga harakat qiladi. Bir gim nastikachi musobaqa jarayonida o'z kuch va imkoniyatlarini shoshilmasdan qat'iyat bilan safarbar qila boshlaydi. Ikkinchisi dalil, g'alabaga chanqoq, musobaqalashish xususiyatlari barqaror bo'lib, o'z kuchiga ishonadi. Uchinchisi sabotli, to'rtinchisi o'ta chidamli, beshinchisi yumshoq, jozibali va shu bilan birga temperamentli, oltinchisi serzavq va ochiq ko'ngilli, ettinchisi kuchli, matonatli, dadil va h.k. Har bir sport turi mashg'ulotlar va musobaqa jarayonida sportchining taktik mahoratini oshirib borish uchun ma'lum talablar qo'yadi. M asalan, bokschidan ringda raqibining taktik harakatlarining o'zgarishiga qarab, unga qarshilik ko'rsatish usullarini o'zgartirib borish talab qilinadi. Jamoadagi intizom sportchidan o'z hissiyotlari va xohishlaridan tiyilishni, baydarka qayig'ini eshkak bilan haydash muvozanatning har qanday buzilishiga sportchining o'z vaqtida yo'l qo'ymasligini talab qiladi. Bu talablami ixtiyoriy ravishda o'zgartirish mumkin em as, chunki ular obyektiv sabablarga, ya'ni faoliyat mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, barqaror va

o'zgarmas temperament tipiga ega bo'lgan sportchi o'zining asab tizimi dinamikasi kuchini m a'lum sport faoliyatining shartlariga va murabbiyning talablariga qanday qilib moslashtira oladi? Buning mumkin bo'lgan yo'llaridan biri shuki, avvalo, sportchi temperamentiga mos keladigan sport turini tanlashi kerak. Masalan, sportning parashutdan sakrash, avtomobil va motosport turlari bilan shug'ullanish m elanxolik uchun nihoyatda qiyin yoki bunday temperamentga ega bo'lgan alpinistda to'satdan paydo bo'ladigan, xavfli va qisqa vaqtda hal qilish, yechimini topish talab qilinadigan murakkab vaziyatlarda o'zini boshqarish og'ir kechadi. Temperamentning ayrim jihatlarini qisman qayta tarbiyalash orqali uni sport faoliyati talablariga ma'lum darajada moslashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, sportchida yuksak faollikni uyg'otadigan juda qiziqarli m ashg'ulotda xolerikning vazm inlik darjasini xuddi sangvinik [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi tem peram entli sportchilarnikidek bosiq bo'ladi. Futbol o'yinida melanxolik o'z vazifasini chuqr his qilgani tufayli o'ziga xos bo'lgan xavotirlanish xususiyatlariga qaramay, o'yinda sangvinik darajasida taktik mahoratini ko'rsatishi mumkin. Demak, temperament moslashuvning bu yo'li ham cheklanmagandir. Chunki juda qiyin sharoitlarda taxminan, o 'ylab ko'rmasdan va tayyorgarliksiz juda tez harakat qilish lozim bo'lib qolgan taqdirda, tempetament xususiyatlari eng chuqr va faol hissiyotlarning ta'siriga qaramay namoyon bo'lishi mumkin. Sport mashqlari va sog'lomlashtirish tadbirlari yordami bilan melanxolikning ishonchlilagini oshirish mumkin. Biroq tashqi hayot sharoitlari va tarbiyaga bog'liq holda teperam entning ham m a xususiyatlarini o'zgartirib bo'maydi. Sport faoliyatining individual uslubi sportchi uchun xarakterlar va muvaffaqiyatli natijaga erishishda maqsadga muvofiq bo'mgan harakatlar usuli va yomining individual tizimidir. Sportchi individual uslubining tarkib topish shartlaridan biri tem peram ent xususiyatlarini hisobga olishdir. Sportchi o'yinda temperamentga ko'p jihatdan mos keladigan harakatni bajarish usullari va yo'llarini tanlaydi. Temperamentga eng mos keladigan harakat usullari va yo'llari temperamentga sabab bo'lgan, ko'pincha mutloqo ixtiyorsiz va behuda javob berish formulalariga ham da harakat xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, muvozanatsiz xolerik gimnastika snaryadlarida

taqiqlangan harakatni fikran xotirada saqlab qolish uchun sangvinikka qaraganda ancha ko'p marta mutlaqo beixtiyor va behuda qarama-qarshi harakatlarni bajaradi. Melanxolik sportchi musobaqadan oldin o'z kuchiga ishonmasligi, bezovtalanishi va xavotirlanishi tufayli o'yin usullarini bajarishda ixtiyorsiz ravishda xatolikka yo'l qo'yadi, uning m usobaqada o 'zin i o'nglab olishi juda qiyin kechadi. Temperamentga bog'liq bo'lgan xuddi mana shunday individual uslub m otosportda, avtomobilchilarda, akrabatchilar va shu kabilarda kuzatiladi. Sportchida individual uslubning tarkib topishida eng muhim shartlardan biri sportchi bajarayotgan jismoniy mashq harakatlariga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishidir. Agar sportchi musobaqada eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga yordam beruvchi qulay usullarni qidirsa, ana shundagina individual uslub yuzaga kelishi mumkin. Sport faoliyatida individual uslub mahoratli sportchilarda, championlarda yaqqol namayon bo'lishi kuzatiladi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Sportchining individual xususiyatlari sport faoliyatida o'zaro chambarschas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Temperament insonning oliv nerv faoliyatining funksiyasi hisoblanib, tug'ma va ayni vaqtda rivojlanuvchandir. Qobiliyatlar esa bilim, ko'nikma va malaka orttirish yo'li bilan rivojlanib boruvchi individual-psixologik xususiyatlar sirasiga kiradi. Sportchining muayyan bir qobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sport turida bilim va ko'nikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. Sportda nazariy bilim olish va amaliy ko'nikma hosil qilish esa o'z navbatida, qobiliyat va iste'dodning yuzaga chiqishiga, o'sishiga sabab bo'ladi. Biror-bir sport turi bo'yicha faoliyat sam arasi jihatid an sportchilarning qobiliyat darajasi har xil bo'ladi. Ba'zi sportchilar o'zlarining yuksak darajali qobiliyatları bilan boshqa sportchilardan ajralib turadi. Bundaylar mahoratli, qobiliyatlari, talantli sportchilar hisoblanadilar. Sportchining qobiliyati uning layoqati asosida muhitga bog'liq ravishda, olayotgan jismoniy yuklamalariga hamda psixologik tayyorgarligiga, shuningdek, sportchining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi. Sportchidagi qobiliyatlar uning barcha ruhiy jarayonlarida namoyon bo'ladi. Sportchi qobiliyatining tarkib topishida qiziqish muhim o'rinni tutadi. Sportchidagi taktik harakatlar. vaqtini tez va harakatni to'g'ri

idrok etishi uning qiziqishi orqali faollashadi. Jismoniy mashqlar va harakatlaming yuqori darajada bajarilishida xayol va tafakkur muhim o'rinn tutadi. Qiziqish jism oniy mashq va sport m ashg'ulotlari jarayonining kuchli va barqaror bo'lisligha yordam qiladi. Sportchining g'alabaga intiluvehanligini oshiradi, uning g'ayratiga g'ayrat qo'shib, tashabbus ko'rsatishga, faol harakat qilishga, ijod etishga, yangidan yangi taktik harakatlar yaratishga undaydi. Sportchilarda g'alabaga bo'lgan hissiyotlar va qiziqishlarning kuchliligi bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli va mustahkam o'zlashtirishning muhim shartidir. Shuning uchun murabbiy o'z shogirdlaridagi m a'lum bir sport turiga oid mavjud qiziqishlarni hisobga olishi, sportchi qiziqishlarining qanday o'sib borayotganligini kuzatib borishi, shogirdlari sport faoliyatida barqaror, mustahkam qiziqish paydo qilishga harakat qilishi zarur. Sportchilaming individual qiziqish va qobiliyatlar ularning sport faoliyatlarini jarayonida yana mustahkamlanib boradi. Diqqat sportchi faoliyati aqliy jarayonining sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Sportchining mashqlaming barcha elementlarini [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi bajarishidagi harakatlari ham diqqat ishtiroki bilan sodir bo'ladi. Masalan, mashhur karatechilar, qisqa vaqt davomida bir nechta hujum uslublari yordamida juda ko'p harakatlarni tez va aniq bajaradilar. Karatechi agar har bir mashqni bajarganida diqqatini faqat bir obyektgagina qaratib harakat qiladigan bo'lsa, musobaqada boshqa muhim obyektlar sportchi diqqatidan tashqarida qolib ketadi. Bu holat sportchiga noqulay vaziyatlar yuzaga keltiradi. Sportchi kuchli markazlashgan diqqat bilan to 'pni nishonga urishi yoki to'pni jamoadagi o'z sherigiga to'g'ri uzatishi bilan bir vaqtning o'zida raqiblarning o'yin joylarini almashtirib turgan harakatlarini ham doimo diqqat bilan kuzatib turishi kerak. Yosh o'yinchilar bilan ishlayotgan murabbiylar shogirdlarini keng markazlashgan diqqatni yaxshi rivojlantirish orqali bajarilayotgan har bir harakatni o'zları ham diqqat bilan kuzatib borishga odatlantirishlari zarur. Sportchi har bir daqiqada diqqatini tashqi va ichki obyektlarga yo'naltirib turadi. Ba'zi sabablarga ko'ra kuchli xayajonlanish natijasida fikran mo'ljallangan reja o'zgargan holatlarda sportchining texnik yoki taktik vazifalarni hal etishida diqqat alohida o'rinn tutadi. Sportchi ichki his-

tuyg'ularini qattiq nazorat qilgan holda diqqatini tashqarida bo'layotgan hodisalarga yo'naltirishga o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Agar sportchi diqqatini ichki obyekt (xalaqit berayotgan fikr)dan tashqi obyekt (musobaqa jarayoni)ga ko'chira olmasa yoki kechikib ko'chirsa, raqibining taktik fikri va harakatlarini kechikib idrok qiladi. Natijada sportchi murakkab taktik masalalami to'g'ri hal qilishda qiynaladi, sergaklik va ishchanlik harakati, ya'ni xavfli vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqarish va nazorat qilish qobiliyati pasayib ketadi. Sportchi diqqatini muhim obyektgaga yo'naltirishi bilan birga, boshqa harakatlarni ham diqqat bilan kuzatib borishi, jism oniy m ashq harakatlarini avtomatlashtirish darajasiga yetkazishi, musobaqa paytida kuchli barqaror markazlashgan diqqatni vujudga keltirishi kerak. Irodaviy diqqati yaxshi rivojlanmagan sportchilam ing diqqati musobaqa paytida tashvishlanishi va vahimaga tushishi natijasida tez tormozlanadi, diqqat hajmi torayadi, sportchiga xos maxsus qobiliyatlar pasayib ketadi; turli-tuman salbiy fikrlaming vujudga kelishi oqibatida, tashqi axborotlarni qabul qilishga xalaqit beradi. Sportchi musobaqada yuqori natija ko'rsatgan holatini, shuningdek, mag'lubiyati sabablarini o'zi tahlil qilishga odatlansa, sportchi diqqati yaxshi rivojlanadi va bo'lajak musobaqalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi Amerikalik mashhur ruhshunos M. Naydiffer tomonidan sportda to'rt tip diqqat mavjudligi aniqlangan:

1. Ichki keng markazlashgan diqqat.
2. Tashqi keng markazlashgan diqqat.
3. Tashqi tor markazlashgan diqqat.
4. Ichki tor markazlashgan diqqat.

Birinchi tip — ichki keng markazlashgan diqqat sohibi bo'lgan sportchining diqqati barqaror, ichki dunyosi., fikri doimo nazoratda boladi; musobaqada sodir bo'layotgan hodisalarni yaxshi tushunadi va tahlil qiladi. Katta hajmdagi axborotlarni qabul qilib, fikran aniq xulosa chiqara bilish qobiliyati yaxshi rivojlangan sportchilar musobaqa jarayonida yo'1 qo'ygan xatolarini o'z vaqtida tez tushunib oladi va boshqa takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu tip diqqat egalari musobaqa vaziyatiga qarab o'zini tezda o'nglab oladi, doimo yuqori ishchanlikda bo'ladi, raqibining o'yin vaqtida bajarayotgan xarakatlaridan tezda aniq xulosalar chiqaradi, o'yinda har xil taktik harakatlar bilan raqibini vahimaga tushiradi, o'ybdagi vaziyatni o'zgartiradi

va o'yinni qanday natija bilan tugashi haqida oldindan to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Katta hajmdagi ichki keng markazlashgan diqqatga ega bo'lgan sportchilardagi kamchiliklardan biri shundaki, muhitni nihoyatda chuqr, uzoq muddat tahlil qilishi natijasida tashqi obyektda bo'layotgan hodisalarga diqqatini tez ko'chirishda sustkashlik qiladi; o'z jamoasi o'yinchilaridan birortasi yoki raqibi kutilmaganda harakatini o'zgartirsa, tezda javob qaytarishga qiynaladi. Masalan, to'p ustasi o'zi bilan o'yinda to'pni olib yurishni yaxshi namoyish etadi. Lekin raqibining taktik harakatlari yoki mahoratini o'z vaqtida emas, kechikib angraydi, natijada raqib vaziyatdan tezkorlik bilan foydalanadi. Bunday diqqat sohibi bo'lgan murabbiylar o'yin taktikasining yechimini musobaqa boshlanmasdan oldin to'g'ri topa oladi. Lekin musobaqadagi vaziyat kutilmaganda o'zgarsa, murabbiy ikkinchi qarorga kelib, uni qo'llashga kechikadi; o'zining ko'rsatmalariga doimo amal qilavermaydi. Bunday murabbiylar tashqaridan qaraganda, go'yo sportchilaming g'am-tashvishlariga be farq qarayotgandek bo'ladi. Lekin vaqt o'tishi bilan musobaqa jarayonida murabbiyning irodali, bilimdon shaxs ekanligi seziladi. Natijada sportchilar o'z murabbiyiga ijobiy baho bera boshlaydilar. Ikkinci tip — tashqi keng markazlashgan diqqat turi sportchilar [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi uchun muvaffaqiyat keltiradi. Bu tip diqqat sohiblari tashqi ta'sirlarga nisbatan qisqa vaqtida, tez va aniq qarorga kelishi bilan farqlanadi. Futbolchilarning ko'pchiligi tashqi keng markazlashgan diqqatga egadir. Ular tashqi vaziyatning o'zgarganini tezda sezib oladi va shunga qarab o'zlarining o'yin harakatlarini osonlik bilan o'zgartiradi. O'yin paytida ochiq turgan o'yinchiga to'pni tezda yetkazib berish qobiliyatining ustunligi yaqqol sezilib turadi. Bu diqqatga ega bo'lgan sportchilar bir vaqtning o'zida katta hajmdagi axborotlarni qabul qiladi va uning obyekt uchun zarur bo'lgan tomonlarini tezkorlik bilan ajratib olib, tezda aniq bir qarorga keladi. Katta hajmda qabul qilingan axborotlarning eng muhimlarini o'ta ziyraklik va zudlik bilan ajratib olib, o'z raqibining o'yin harakatlarini tez va aniq tahlil qiladi. Agar u axborotlar tahlilida va qarorga kelishda kechiksa, raqibiga qulay imkoniyat yaratib bergen bo'ladi, ya'ni o'sha vaziyatdagi imkoniyat raqib foy^ dasiga hal bo'ladi. Agar raqib tezkor tafakkurga

ega bo'lsa, o'yinchining oldin yo'l qo'ygan xatosini qaytadan takrorlatish maqsadida yana o'shanday vaziyat vujudga keltiradi. Tashqi keng markazlashgan diqqatga ega bo'lgan murabbiylar, o'zining xatti-harakatlarini to'g'ri boshqarish va nazorat qilishda ojizlik qiladi; kuchli hissiyotliliги sababli tashqi ta'sirlar uni noqulay ahvolga solib qo'yadi. Bu tip diqqat sohibi bo'lgan murabbiy ba'zan musobaqada vaziyatni to'g'ri va tez tahlil qilishda qobiliyatsizlik qiladi. Murabbiyning ta'sirchanligi sababli musobaqalarda kutilmaganda xavfli vaziyat vujudga kelgan vaqtarda, uning aql bilan bajaradigan ishchanlik holati pasayadi va taktik vazifalarni kechikib hal qiladi. Agar jamoada o'yin ko'tarinki ruhda davom etsa, murabbiyning kayfiyati ham ko'tarinki ruhda bo'lib, sportchilaming kayfiyatini ko'tarish maqsadida ularning yelkasiga urib, maqtab, olqishlab ham qo'yadi. Bordiyu, jamoaning o'yin jarayoni salbiy tomonga o'zgarsa, murabbiyning ham xatti-harakatlari o'zgaradi: sportchilarga baqirib-qichqirib, ba'zan so'kinib, har xil ko'rsatmalar va buyruqlar bera boshlaydi; sport hakamlariga va atrofdagi odamlarga ham o'z ta'sirini, hukmini o'tkazmoqchi bo'ladi. Ammo murabbiyning bu uslubi ijobiy natija bermaganidan so'ng, o'shanda yuzaga kelgan holat haqidagi fikr va mulohazalarini atrofdagi odamlarga bir necha bor bir necha kunlar tu shuntirib, gapirib yuradi. Bunday murabbiylarning o'z shogirdlari orasida izzat-hurmatga sazovor bo'lishi juda qiyin kechadi. Tashqi tor markazlashgan diqqat barcha yakka kurash sport turlari va [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi tennischilar uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishga xizmat qiladi. Bu diqqat xususiyati yaxshi rivojlangan sportchilar bir necha obyektda bo'layotgan harakatlarga diqqatini tez ko'chira oladilar va tezda aniq qarorga keladilar. Biroq bu tip diqqat sohibi bo'lgan sportchilar tashqaridan qabul qilingan axborotning o'ziga xos tomonlarini kechikib qayta ishlaydi. Masalan, sportchi xayolan oldindan aniq bir o'yinchiga to'pni uzatishni mo'ljallab qo'ygan bo'ladi, lekin raqib oxirgi daqiqada o'sha o'yinchini to'sib qo'ysa, sportchi o'yin sur'atini pasaytirmasdan boshqa o'yinchiga to'pni uzatish harakatini qiyinchilik bilan bajaradi. Mashhur basketbol o'yinchisi Uolt Frezer: «Men bunday diqqat xususiyatiga ega bolgan raqibni jonu dilim bilan sevaman», - degan ekan. Chunki bu o'yinchi diqqatini faqat yaqinida

turgan raqibiga yo'naltiradi, to'satdan boshqa bir o'yinchi undan osonlik bilan to'pni olib qo'yadi. To'rtinchchi tip — ichki tor markazlashgan diqqat uzoq masofaga chopishda, og'ir atletika, uloqtirish, suzish va chidamlilikni talab qiladigan boshqa sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarga muvaffaqiyat keltiradi. Eunday diqqat sohibi bo'lgan sportchi o'zining jismoniy imkoniyatini aniq baholay oladi, musobaqada masofani qanday tezlikda chopib o'tishni aniq his qiladi, yuqori ko'rsatkichlarga erishadi, ammo ular tashqi ta'sirlarning ichki salbiy histuyg'ularidan saqlanishga odatlanishi zarur. Ichki tor markazlashgan diqqatga ega bo'lgan sportchilar psixologik egiluvchanlikning yetishmasligi natijasida, kutilm aganda tashqi vaziyatning yoki raqibining taktik harakatlarini o'zgartirishi tufayli o'zini tezda o'nglab, moslashib ola bilmasligi bilan ajralib turadi. Lekin irodali sportchilar o'z oldiga qo'yan maqsadiga erishish uchun yuqori ishchanlikni oshiradi va g'alabaga erishadi. Masalan, biz sport ko'rsatkichlari va diqqati bir xil bo'lgan ikkita suzuvchini taqqoslaymiz. Shulardan birinchi suzuvchi katta kuchlanish bilan mashq qilishi, maqsadga intiluvchanligi, o'ziga ishonchi va histuyg'usi kuchliligi bois, musobaqada yuqori ko'rsatkichga erishadi, ko'pchilik holatlarda g'alaba qozonadi. Ikkinci suzuvchi ham katta kuch bilan mashq qiladi, biroq ba'zan o'z kuchiga ishonmasligi tufayli, maqsadga erishishda ikkilanadi, oldingi mag'lubiyatdan vahimaga tushadi, natijada musobaqada yutqazib qo'yadi. Ichki tor markazlashgan diqqat egasi bo'lgan sportchi ko'pincha o'z raqibining yuqori malakali sportchi ekanligini bilib qolsa, unga g'alabani berishga tayyor bo'ladi, o'ziga nisbatan «qobiliyatsizman» degan xulosani chiqaradi. Shundan ma'lumki, bir xil diqqat xususiyatiga [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi ega bo'lgan sportchilaming iroda sifati mashq va musobaqalarda qanday natijalarga erishuvida muhim o'rinn tutadi. Musobaqa paytida juda nozik diqqat xususiyatlari ham murakkablashib ketadi. Masalan, golf o'yinini endi o'rganayotgan o'yinchida birinchi navbatda katta hajmdagi tashqi markazlashgan diqqatning yaxshi rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki bu sport turi o'yinchidan bir vaqtning o'zida to'pni tushiradigan oysimon chuqurchanening uzoq va yaqinligini, shamolning yo'nalishini, qarshilagini, havoning zichligini, o'zining jismoniy kuchini inobatga

olishni talab etadi. Golf o'yinchisi bundan so'ng o'zida katta hajmdagi ichki markazlashgan diqqat yordamida tashqi axborotni umumlashtirgan holda, tashqi va ichki to'siqlami inobatga olib, musobaqa paytida taktik masalalami to'g'ri hal qiladi, o'zining real imkoniyatlarini aniq va to'g'ri baholaydi, diqqatini bir vaqtida tashqi va ichki ta'sirlarga ko'chira oladi. Sportchi diqqatini bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket zudlik bilan bir tipdan ikkinchi tipga ko'chira olsa, bunga odatlansa, musobaqalarda jiddiy g'alabalarni qo'lga kiritadi. Masalan, sportchi tayyorgarlik davri diqqatini to'pni urushga qaratishi, undan keyin diqqatini ichki tor tipga ko'chirish orqali musobaqadagi umumiyligi vaziyatiga to'g'ri baho berishi, musobaqada xato qilmaslikning oldini olishi mumkin. Eng muhim, sportchi o'z diqqatini qisqa vaqt ichida, bir tipdan ikkinchi tipga ko'chirishga odatlanishi zarur. Agar sportchi diqqati egiluvchan bo'limasa, o'yinda juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadi. Masalan, ichki tor markazlashgan diqqati yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, o'yinda to'pni uzatish yoki darvozaga yo'llashda xatosini tez anglab tahlil qilishda va boshqa takrorlamaslikda qiyinchilikka uchraydi. Musobaqa paytida vaziyatga qarab sportchining diqqr.ti «torayadi», «kengayadi», tashqi obyektda yoki fikrda yoxud sezgilarda diqqatning markazlashuvi turli shaklda bo'ladi. Ba'zan odam og'ir ishni bajarganida, charchaganida yoki tanida og'riq paydo bo'lgan paytda diqqat qilayotgan ishni vaqtincha to'xtatib qo'yish haqida ogohlantirish hamda organizmni himoya qilish uchun signal vazifasini bajaradi. Agar harakat davom etsa, odamda asabiylashish holati vujudga keladi. Bu signal sportchining musobaqada yuqori ko'rsatkichlarga erishish maqsadida tezkorlik bilan ishslash his-tuyg'usini vujudga keltiradi. Buning uchun sportchi o'z organizmning chiniqqanligi yoki jismoniy imkoniyati haqida to'g'ri xulosa chiqarishi; xavfli vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqarish uchun o'z organizmining [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi «xohishiga» muvofiq «Men boshqa bajarmayman» degan fikrini «Men bajarishim kerak» degan fikr bilan almashtira bilishi zarur. Shunday holatdagina sportchi o'z oldiga qo'ygan talabni bajara oladi. Tajribali sportchilar musobaqa jarayonida o'ziga buyruq berish, majburlash yoki har xil obrazli fikrlardan, formulalardan foydalanadilar. Tish doktorlari inson organizmida og'riq paydo bo'lganida, diqqatini boshqa

obyektga ko'chirish yordamida emas, balki kasalning diqqatini har tomonga taqsimlash yo'li bilan og'riqni kasal ongida to'xtatishga muvaffaq bo'ladi. Ba'zi uzoq masofaga yuguruvchi sportchilar organizmida paydo bo'lgan og'riqni diqqat yordamida miya markazidan boshqa oyoq harakatlarini nazorat qilishga, qo'lning tirsakdan bukilgan burchagiga, nafas olish maromiga ko'chirish yordamida pasaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sport faoliyatining sifatli bo'lishida, diqqatning hajmi, kengligi, kuchi va barqarorligining ahamiyati juda katta. Diqqat ko'lami. kengligi yaxshi rivojlangan odamlar zarur bo'lgan axborotdan ham ko'p axborotni o'ziga qabul qiladi va o Tlashtiradi. Bu ortiqcha vaqt ni oladi va qisqa vaqt ichida bir qarorga keiishda qiynaladi. Masalan, o'yinchi bo'lajak musobaqada kutiladigan barcha vaziyatni fikran hisobga ola boshlaydi. Lekin sportchi fikran son-sanoqsiz vaziyatlarni hisobga olganligi bois, zarur bo'lgan vaziyatni yo'qotishi mumkin. Diqqat tiplari e 'tiborga olinmasa, murabbiy va sportchilaming birbirlarini tushunishlari qiyin kechadi: murabbiy yoki sportchilar, jamoadoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishda qiynaladilar. Masalan, o'yinda basketbolchi jarima to'pini halqaga tashlaganida to'p tushmasa, uning sababini tahlil qila olmasligi mumkin. Ayni shu vaziyatda murabbiyning diqqati tashqariga yo'naltirilgan bo'lsa, bu vaqtida u shogirdining faqat tashqi harakatlarini aniqlash bilan band bo'ladi. Jarim a to'pi tushmagani sababini o'yinchining tashqi harakatlaridan, ya'ni to'pni ushlashi, oyoq qo'yishi kabilardan izlashga harakat qiladi. Lekin sportchining kuchli ta'sirchanligi, hissiyotliligi to'pni ushlab tashlashda o'ziga ishonmasligi, vahimaga tushishi kabilalarini yaxshi tahlil qilib, boshqa xato qilmaslik yo'lini o'rgatishda murabbiy qobiliyatsizlik qiladi. Murabbiy sportchining ruhiy sifatlarini, sportda diqqatning ahamiyatini yaxshi bilsa, yuqorida aytilgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaydi. Demak, sportda diqqat alohida ahamiyatga molik: diqqat tiplari, diqqat va harakat uyg'unligini bilish ham sportchi uchun, ham murabbiy uchun juda muhimdir.

## **SPORTCHILARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH**

Sport jamoalari (sport guruhlari va sport jamoalari)da sportchilarda hissiy- irodaviy

sifatlarni rivojlantirishda irodani shakllantirishning ahamiyati juda kattadir. Bu masalani kuchli taassurot qoldirarli darajada hal etish uchun irodaviy psixologik qonuniyatlarning rivojlanish jihatlarini hisobga olish zarur. Ioda sportchilaming qiyinchiliklarni yengish jarayonida shakllanib boradi. Bu irodaviy sifatlar sportchilaming quyidagi faoliyat turlarida: sport mashg'ulotlari rejasi mazmunini o'zlashtirishlarida, turli xil jismoniy mashqlarni bajarishlarida, tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishlarida hamda ushbu jarayonda namoyon bo'ladigan turli subyektiv munosabatlarda vujudga keladi: 1. Sport mashg'ulotlari rejasi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchilik (gimnastika, yengil atletika, basketbol, suzish va h.k.)lar. 2. Mashg 'ulotlarni tashkil qilishda sport zali va maydonchalarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar. 3. Mashg'ulotlar o'tkazishda sport anjomlarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar. 4. Yosh va individual xususiyatlarga bog'liqligi hamda sportchHorning mashg'ulotlami tashkil qilishda umumiy sharoitlarga subyektiv munosabati. 5. Sportchilaming gimnastika, yengil atletika va harakatli o'yin mashqlarini bajarishda individual va yosh xususiyatlari bilan bog'liq subyektiv munosabatlar. 6 . Sportchilarda aniq harakatlarni bajarishda irodaviy sifatlarni vujudga keltirish va yo 'naltirishda individual va yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan subyektiv munosabatlar. Aralash uslublardan foydalanib, irodaviy sifatlarni tarbiyalashda ichki qiyinchiliklarni yengib o'tishni hisobga olish lozim. Sport mashg'ulotlari va mashqlar jarayonida tashqi va ichki ruhiy qiyinchiliklarni bartaraf etish o'quv materiallari xarakteriga, rejadagi me'yor talablariga hamda sportchilaming individual xususiyatlariga qarab belgilanadi. Ko'p hollarda yosh sportchilar (13—15 yoshlar atrofidagi o'smirlar)da jismoniy kuch sifatlarining past rivojlanganligi, u yoki bu mashqlarni bajarishda o'ziga ishonchning yo'qligi, jarohat olishdan qo'rqish holati, uyalish, umuman, mashg'ulotlarga salbiy munosabatda bo'lish kabilar ularda umumiy qiziqishning pasayib ketishiga olib keladi. Qiziqarli tashkil etilgan mashg'ulot va mashqlar sportchilarda ijobiylar irodaviy sifatlarni www.ziyouz.com kutubxonasi shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashg'ulotda bajariladigan maxsus jismoniy mashqlar sportchilaming irodaviy faoliyklarini

o'stirishga kuchli ta'sir etadi. Masalan, sportchilarda mustaqil fikrlashni o'stirish uchun ular bilan birgalikda muskullami o'stiruvchi bir guruh mashqlar o'ylab topish, shulardan yengil va og'ir jismoniy mashqlarni tanlab olish va birgalikda bajarish, mashg'ulotning asosiy qismida bir nechta mashqlarni taqqoslash kabilar juda muhimdir. Sportchilarda chidamlilikni o'stirish maqsadida mashqlarni yuqori mahorat bilan bajarish, ba'zi bir mashqlarni maksimal darajada bajarish, qisqa vaqt ichida aniq ko'rsatkichlarga erishish, qiyin sharoitlarda mashqlarni yuqori texnik va taktik mahorat bilan bajarish asosida yuqori natijalarga erishish (oyoqlarni almashtirib balandlikka sakrash, qaramaqarshi tomondan chopib kelib sakrash, vaziyatni qiyinlashtirib sakrash m ashqlarini takror-takror bajarish) talab qilinadi. Shuningdek, sportchilarda irodaviy sifatlarni vujudga keltirish maqsadida maxsus m ashqlarni bor kuchini sarf qilish asosida o 'z-o 'zin i irodaviy majburlashga o'rgatish ham juda muhimdir. Irodaviy kuch uslubini tashqi va ichki turlarga ajratish mumkin: 1) tashqi irodaviy kuch sportchining sezgi organlariga ta 'sir etib turgan tashqi hodisaga va qo'zg'ovchilarga bogliq bo'ladi; 2) ichki irodaviy kuch mashg'ulotlar jarayonida va musobaqalarda sportchining o'zida mavjud bo'lgan yo'nalishlar asosida paydo bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida va musobaqalarda sportchilarda irodaviy chidam likni tarbiyalashda m urabbiyga quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya qilamiz: a) uyga berilgan mashqlarni to'g'ri bajarishni talab qitish; b) sportchilarni o'z kuchiga ishonch ruhida tarbiyalash; d) to'g'ri bajarilgan mashqlarni baholash; e) majburlash, musobaqalashish, maqtash; d) sportchilarda o'z-o'zini rag'batlantirish malakalarini hosil qilish; e) qiyin mashqlarni mustaqil bajarishga o 'rgatish; f) o'ziga-o'zi ta 'sir etish, o'zini-o'zi xursand qilish, o'ziga-o'zi buyruq berish v.b. Bolalik va o'sm irlik davrida sportchilarni har tom onlam a rivojlantirishda maxsus jismoniy mashqlarning ahamiyati juda kattadir. Jamoa va sport guruhlarida sportchilarda jamoachilik, mehnatsevarlik, intizomlilik, axloqiylik kabi sifatlar o'stiriladi. Inson bolasi tug'ilishi bilan unda har xil harakatlarni bajarish ehtiyojlari paydo bo'ladi. Ibn Sino aytganidek, inson harakatlanganda uning to'qimalaridagi har xil zaharli moddalar organizmdan ter bilan tashqariga chiqib ketadi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

Sport mashg'ulotlarining asosiy maqsadi yuqori malakali sportchilar, sport mutaxassislari, championlar tayyorlash asosida yosh avlodni sog'lom o'sishiga ko'maklashish yoki sog'lomlashtirishdir. Jismoniy madaniyat va sport har bir sportchining shaxsiy ishi bo'lmasdan, balki jamiyat talabi ekanligini murabbiylar ongli ravishda his etmog'i zarur. Bizning sog'lomligimiz faqat o'zimiz uchungina emas, balki boshqa kishilar, qolaversa, Vatan taraqqiyoti uchun ham eng muhim omildir. Akademik N.M. Amosov so'zi bilan aytadigan bo'lsak, sog'lom kishini kasalligi yo'qligiga qarab emas, balki turli xil tez harakatlarni bajarish hajmiga qarab hamda kundalik harakatlarining turiga, sifatiga, soniga qarab uning sog'ligini baholash zarur. Har xil harakatlarni bajarishning chegaralanganligi, sog'likni mukammal emasligining belgisidir. Sport mashqlari bilan shug'ullanish har bir yosh avlodning kundalik hayotida doimiy va shaxsiy maqsadlaridan biri bo'lishi bilan birga, uning kamol topishi, vatanni sevishi va himoya qilishi uchun eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. M a'lumki, sport mashg'ulotlari jarayonida sportchilarga mustaqil jismoniy mashqlarni bajarish uchun uyga vazifa beriladi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad har bir sportchini jismoniy mashqlarni o'zları mustaqil bajarishga odatlantirish, shu asosda ularda ijodiy tafakkurni o'stirish, o'zini-o'zi boshqarish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilishdir. O 'zini-o'zi tarbiyalash har bir sportchining erkin faoliyatidir. Sportchilarda erkin faoliyat yuritish ehtiyojlarini o'stirish uchun har bir m urabbiy o 'zin i-o 'zi tarbiyalashning quyidagi qonuniyatlarini: a)o'zini-o'zi tarbiyalash uslublarini yaxshi bilishi; b) sportchilar jam oasini yuqori rivojlangan jamoaga aylantirish; d) sportchilaming o 'zlarini mustaqil ravishda o 'zini-o'zi tarbiyalashni kundalik hayot tarziga aylantirish hamda o 'zini-o'zi tarbiyalash uchun bor kuchini safarbar qilishga odatlanish; e) sportchining o 'zligini anglash va o'zini bilish darajasini aniqlash; j) sportchini o'zining ichki dunyosini bilishga qiziqish; e) irodaviylikni o 'stirish kabilarni bilishi lozim. O'zini-o'zi tarbiyalash ikki shaklda: 1) jamoatchilik va 2) individual shakllarda amalga oshiriladi. Jamoatchilik shaklida sportchilaming o'zo'zini tarbiyalashi sport mashg'ulotlari, mashqlar va musobaqa jarayonida o'z qiziqishlari bo'yicha turli xil mashqlarni, jamoat ishlarini birgalikda bajarish

jarayonida amalga oshiriladi. Shuni hisobga olish kerakki jamoatchilik majburiyatlarini olish va bajarish ishlari o'zinio'zi tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi. Sportchilar o'zlarining [xulqwww.ziyouz.com](http://xulqwww.ziyouz.com) kutubxonasi atvorini to'g'ri baholashga o'rgatilsa, jamoatchilik fikrining barqarorligi paydo bo'ladi. Natijada sport guruhi jamoasi uyushgan, mustahkam kuchga aylanadi. Individual shaklda har bir sportchi o'ziga aniq majburiyat oladi. Bu majburiyatni bajarishda, har bir sportchining individual xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim. O 'zini-o'zi tarbiyalashni tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi: I) o 'zini-o 'zi tarbiyalash rejasi aniq va mazmundor bo 'lishi lozim; 2) yangi majburiyatlar eskisi bajarUgandan keyin qabul qilinishi shart; 3) sportchilaming o 'z ustida mustaqil ishlashi jamoatchilik tomonidan baholab borilishikerak; 4) o'zini-o'zi tarbiyalashda tarbiyaning qanday vositalaridan foydalanishni ko'rsatib berish lozim. Masalan, o'smirlik yoshidagi sportchilar o'zini-o'zi tarbiyalashda quyidagi uslublarga izchil amal qilishi maqsadga muvofiq: a) eng og'ir sharoitlarda ham o'zini yo'qotmaslik; b) arzimagan narsalarga xafa bo'lavermaslik; d) irodasizlikka yo 7 qo 'ymaslik, ya 'ni «muvaqqiyatsizlikda ham o 'zini y o 'qotmaslik». O'zini-o'zi tarbiyalash quyidagi bosqichlar to'g'ri tashkil etilgan taqdirdagina ijobjiy natijalar beradi: I bosqichda sportchilarda axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlarning uyg'un rivojlanmaganligini, jismoniy mashqlar bilan doimo shug'ullanish uchun ularga nimalar xalaqit berayotganligini aniq hisobga olib, sportchilarni bu kamchiliklarni bartaraf qilishga o'rgatish; ularda o'zinio'zi tarbiyalashning g'oyaviy tomonlarini o'stirish, o'zini-o'zi himoya qilish xususiyatlarini shakllantirish, o'zining jismoniy kuchlilik sifatlarini yanada kamol toptirish uchun mustaqil ishslashga odatlantirish, sport musobaqalarida faol ishtiroy etish ehtiyojlarini shakllantirish talab qilinadi. I I bosqichda sportchilaming o'zini-o'zi tarbiyalash faoliyatining amaliy tomonlarini tashkil etishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin: a) sportchi o'ziningxo/tishi bilan yozma majburiyat-vazifalarni qabul qilish; b) ma 'lum bir vaqt davomida, o 'zining xulq-atvorini baholash, o 'zi qabul qilgan vazifalarni o 'z vaqtida bajarish hamda o 'zidagi axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlar to'g'risida hisobot berish; d)

sportchining o'zi olgan majburiyatlarini yozma tahlil qilish: musobaqlarda erishgan muvaffaqiyatlari va mag'lubiyatlarining sabablarini anglash malakalarini shakllantirish; e) sportchi o'zini-o'zi baholashda o'zida yetishmaydigan xususiyatlarni to'g'ri his etish yordamida xulosa chiqarishga o'rganish. III bosqichda sportchini o'zini-o'zi har tomonlama mustaqil ravishda kamol toptirish ehtiyoji bilan yashashga odatlantirish lozim. Sport jamoasi yoki guruhini to 'g'ri boshqarish murabbiyning tashkilotchilik va pedagogik mahoratiga, bilim va qobiliyatiga bog'liq. Jumladan, murabbiyning taiabchanligi, sportchilar jamoasi bilan to 'g'ri va o'zaro hurmatga asoslangan munosabat o'rnatishi sportchilaming mashg'ulotlarga bo'Mgan qiziqishlarini oshirish imkonini beradi. Murabbiy sportchilar jamoasini to 'g'ri boshqarishda quyidagilarga alohida e 'tibor qaratishi maqsadga muvofiq: bir-biriga bo'Mgan talabchanlikni xolis baholash, o'zini ishontirish, sport musobaqalarida to 'g'ri raqobatlashish, bir-biriga yordam lashish, jism oniy zaif sportchilarni to 'g'ri tushunish va ular to 'g'risida g'amxo'rlik qilish, guruh sportchilari kayfiyatini ko'tarish kabilar. Sportchilaming ruhiy faollik darajasi ko'pincha sport mashg'ulotlari va musobaqalarning yuqori darajada sifatli o'tkazilishiga bog'liq bo'Madi. Sportchilar bunday tashkil etilgan musobaqa jarayonida o'zlarini ko'rsatish maqsadida bor kuchini safarbar qiladi. Shuningdek, musobaqalashish uslubi sport turlari uchun «lider»larni aniqlashga, sportchilaming bo'lajak sport musobaqalarini o'zlar mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun murabbiy hamda faol sportchilardan kuchli irodaviy sifatlarni ishga solish talab qilinadi. Tajribali murabbiylar sport mashg'ulotlari jarayonini juda yaxshi idrok qilishi va shogirdlaridagi mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida his qilishi va uni o'z vaqtida bartaraf etib borishi lozim. Bulardan tashqari, murabbiyning harakat xotirasi keng hajmda qabul qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishi, bajariladigan har xil harakatlaming obrazlarini xotirasida saqlay bilishi, mashg'ulotlar davomida sportchilaming nima bilan mashg'ulligini kuzatib turib, ularni tez, qisqa vaqt davomida to 'g'ri yo'lga solishi hamda aniq bir qarorga kelishi talab etiladi. Sport m urabbiysining faoliyatida uchraydigan obyektiv qiyinchiliklardan biri uning

mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lgan fanlarni qay darajada o'zlashtirganlik holatidir. Jumladan, jismoniy madaniyat nazariyasi, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, sport tibbiyoti, falsafa, shuningdek, yengil atletika, gimnastika, basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol, suzish, kurash kabilalarini talab darajasida o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Aks holda murabbiyning sportchilar bilan birga ishlashi juda qiyin kechadi. Murabbiyning subyektiv qiyinchiliklarini ikki guruhga ajratib o'rganish mumkin. Birinchi guruhga ularning individual xususiyatlari [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar: asab tizimi tiplari va tuzilishi, temperamenti, xarakteri kabilar kiradi. Masalan, xolerik temperamentga ega bo'lgan murabbiyning asab tizim i kuchli muvozanatsizligi, qo'zg'aluvchanligi, ta'sirchanligi, o'zini tutu bilmaligi bilan ajralib turadi. Flegmatik tem peram entdag'i murabbiylar esa o'zlarining sustkashligi bois sportchilam ing xatolarini kechikib payqaydilar. Murabbiyning subyektiv qiyinchiliklaridan yana biri ularning o'z maqsadiga erishishlarida paydo bo'ladigan quyidagi to'siqlardir: o'zini tutu bilmaligi, sport ishlarini aniq rejalashtira olmasligi, layoqatsizligi, ishyoqmasligi, aqliy xususiyatlarining cheklanganligi, ichkilikbozlikka berilishi kabilar. M urabbiyning ish faoliyatida uchraydigan maxsus individual qiyinchiliklar ham subyektiv qiyinchiliklar guruhiga kiradi. Murabbiyning o'z ishini yaxshi bilmaligi yoki yoshining o'tishi sababli jismoniy mashqlarni amalda ko'rsatishida (jismoniy zaifligi, sog'ligi tufayli gimnastika va yengil atletika mashg'ulotlari jarayonida sakrash m ashqlarini bajarishida, arqonda ko'tarilishida) uchraydigan qiyinchiliklar shular jum lasidandir. M urabbiy bu subyektiv qiyinchiliklarni yengishi, birinchidan, uning pedagogik mahoratiga, sportchilar ruhiyatini tez, sezgirlik bilan baholay olishiga va sport turlarini yaxshi o'zlashtirganligiga bog'liq. Ikkinchidan, murabbiyning o'z shogirdlari orasidagi obro'yi, yuqori darajadagi bilimdonligi, tadbirkorligi, o'z bilimini amaliyotda qo'llay bilishi, mashg'ulotlarni tashkil qilishdagi ijodkorligi, sportchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirib borishi kabilar uning bu qiyinchiliklarni yengishida muhim o'rinn tutadi. M urabbiyning faoliyatini tashkil etishida paydo bo'ladigan qiyinchiliklaridan yana biri uning o 'z ishini to 'g 'ri rejalashtira

bilmasligida. Sport mashg'ulotlari va rivojlantiruvchi mashqlarni talab darajasida aniq rejalashtirib olgan murabbiy sportchilar jamoasi bilan to'g'ri muloqot olib boradi, mashg'ulotlarni oqilona tashkil etadi, ularni har tomonlama jismoniy va ruhiy rivojlantira oladi, sportchilaming axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishda muvaffaqiyatlarga erishadi. Y uqorida ta 'kidlangan ishlarning to 'g 'ri bajarilm asligi sport mashg'ulotlarining sifatsiz o'tilishiga sabab bo'ladi. Murabbiy ishini rejalashtirishda sportchilaming ruhiy jihatdan o'sib borishini inobatga olishi, ularda ijtimoiy faollikni o'stirishi lozim. Shuningdek, u jamoatchilik, pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorlik [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi o'rnatib, o'z faoliyatida pedagogik muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yishi; shogirdlariga xayrixohlik ko'rsatib, mehribonlik qilishi; ularning chidamlilik sifatlarini o'stira borib, intizomli bo'lishga odatlantirishi kerak. O'z ishini aniq rejalashtirgan murabbiy sport mashg'ulotlari va musobaqalarda sportchilaming xatti-harakatlarini oldindan biladi va o'z vaqtida ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etadi. Natijada sport jamoasi yoki guruhda intizom yaxshilanadi. Buning natijasida jam oa sportchilarining tartib-intizomi yanada yaxshilanadi. Bulardan tashqari, murabbiy sport maydonchalarini jihozlash, mashg'ulotlarni sifatli tashkil qilish, shogirdlari o'rtasida vazifalarni to'g'ri taqsimlash, mashqlaming zichligiga izchil e 'tibor berish, sportchilam ing salom atlagini mustahkamlash maqsadida ertalabki gimnastika mashqlarini bajartirish, harakatli o'yinlar tashkil etish, tabiat qo'yni (tog' yon bag'riga, dengiz yoki daryo sohiliga kabilar)ga piyoda safarlar uyushtirish kabi tadbirlarni aniq amalga oshirib, yuz berishi mum kin bo'lgan obyektiv qiyinchiliklarga barham beradi.

## 2. BOB JISMONIY TAYYORGARLIK

Sportchining jismoniy tayyorgarligi sport faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlarni, qobiliyatlarni tarbiyalash demakdir. Sportchining jismoniy tayyorgarligi bevosita amaliy sport yo'nalishiga ega bo'lgani uchun, ayni vaqtida organizmning umumiy jismoniy rivojlanishi, mustahkamlanishi va chiniqishi bilan tamomila bog'liqdir. Tayyorgarlikning barcha boshqa tomonlari singari jismoniy

tayyorgarlik ham umumiy va maxsus bo‘ladi. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rishi tanlangan sport turiga xos javob bera oladigan jismoniy qobiliyatni tarbiyalash jarayonidan iboratdir. Ma’lumki, sportning har bir turi sportchining jismoniy qobiliyatlariga maxsus talablar qo‘yadi, xilma-xil jismoniy fazilatlar o‘ziga xos uyg‘unlashgan bo‘lishi va namoyon etilishi talab qilinadi. Masalan, sprinter (yaqin masofaga yuguruvchi)dan avvalo tezkor-kuchlilik fazilatlarining maxsus nisbatda bo‘lishi (ba’zan uni sprinterlik quadrati deb ataladi), shuningdek, jumladan, mushak qisqarishining energetik resurslaridan anaerob (ozod kislorod yo‘qligida) foydalanishga asoslangan tezlik, chidam talab qilinadi. Stayer (uzoq masofaga yuguruvchi) uchun esa, aksincha birinchi navbatda nafas olishdagi modda almashinish (kislorod almashinishi) jarayoni yuksak darajada bo‘lishiga asoslangan chidamlilik zarurdir. Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi deganda, ular tanlangan sport turi uchun xos bo‘lmagan, biroq sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun bevosita va bilvosita ijobiylari ta’sir ko‘rsatadigan har tomonlama jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlik uchun zamin yaratadi, ya’ni tanlangan sport turida kamol topish uchun zarur shart-sharoit sifatida kuchlilikni, tezkorlikni, chidamlilikni, epchillikni, chaqqonlikni har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi mazmuni uning qaysi sport turi bo‘yicha ixtisoslashganligiga bog‘liq. Sportchining umumiyyatini maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan, ya’ni jismoniy mashqlar, chiniqish va sog‘lomlashtirishning tabiiy omillari (oftobda pishish, havo va suv muhitining xususiyatlari), rejim va boshqa gigiyenik sharoitlaridan foydalaniladi. Bunda maxsus tanlangan jismoniy mashqlar asosiy rol o‘ynaydi. Sportning har bir turidagi muvaffaqiyat faqat mazkur sport turining o‘ziga xos tomonlarini ifoda etuvchi ayrim qobiliyatlar bilangina emas, balki organizmning funksional imkoniyatlarining umumiy darajasi bilan ham belgilanadi. Shu sababdan ham maxsus tayyorgarlik bilan umumiy tayyorgarlik birga qo‘sib olib borilganidagina sportchining jismoniy tayyor garligi har tomonlama bo‘lishi mumkin. Chiniqish, sog‘lomlashtirishning tabiiy omillari

hamda gigiyenik sharoitlardan mashg‘ulotlar vaqtida ham, shuningdek mashg‘ulotdan tashqari holatlarda (maxsus gigiyenik omillar, hammomga tushish, massaj qilish, umumiy turmush tartibiga rioya qilish, ovqatlanish rejimi va hokazolarda) ham foydalaniladi. Mazkur omil va shartlarning sport faoliyatidagi ahamiyati mashg‘ulot yuklamalari ko‘paya borgan sari tobora ortib boradi.

### **7.1. Karatechining jismoniy tayyorgarligi.**

Karatechining jismoniy tayyorgarligi sport trenirovkasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

Jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sportchilar sog’lig’i darajasi va ular organizmi turli tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshirish.

Jismoniy sifatlarni sport kurashining o’ziga xos xususiyatiga javob beradigan birlikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy, yordamchi va maxsus tayyorgarlikka bo’linadi.

**Karatechining umumiy jismoniy tayyorgarligi** yuqori natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U asosan quyidagi vazifalarning hal etilishini ta’minlaydi:

Karatechi organizmini har tomonlama garmonik rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Salomatlik darajasini oshirish.

Shiddatli trenirovka va musobaqa nagruzkalari davrida faol dam olishdan to’g’ri foydalanish.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik turli vositalar to’plamini o’z ichiga oladi. Ular orasida snaryadlarda va snaryadlar bilan bajariladigan mashqlar, sherik bilan maxsus trenajyorlarda bajariladigan mashqlar, boshqa sport turlari: akrobatika,

yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va h.k.dan olingen umumiy rivojlantiruvchi mashqlar ajratiladi.

Yoradamchi jismoniy tayyorgarlik maxsus harakat malakalarini rivoj-lantirishga qaratilgan katta hajmdagi ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus asosni yaratishga mo'ljallangan. U ancha tor va o'ziga xos yo'nalishga ega hamda quyidagi vazifalarni hal etadi:

Asosan karate uchun ko'proq xos bo'lgan sifatlarni rivojlantirish.

Karatechi harakatlarida katta darajada ishtirok etuvchi mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yordamchi jismoniy tayyorgarlikning ilg'or vositalari sifatida shunday mashqlar qo'llaniladiki, ular o'zining kinematik va dinamik tarkibi hamda asab-mushak kuchlanishi xususiyatiga ko'ra Karatechining musobaqa faoliyatida bajaradigan asosiy harakatlariga mosdir. Shunday mashqlar orasida quyidagi-larni ajratish mumkin: kurashning turli usullarini ishora orqali bajarish; maxsus trenajyor moslamalarida bajariladigan mashqlar; karatechilar manekeni bilan mashqlar.

Karatechining maxsus jismoniy tayyorgarligi harakatlanish sifatlarini karatechining musobaqa faoliyati xususiyatlari tomonidan qo'yiladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan.

Karatechining maxsus jismoniy tayyorgarligi asosan tatamida o'tkaziladi va harakat malakalari tarkibidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida mumkin bo'lgan turli murakkabliklarni jalg qilgan holda musobaqa mashqlari qo'llaniladi. Bunday murakkablashtirilgan mashqlar karatechi organizmiga bo'lgan ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, yengillroq va chaqqonroq vazn toifasidagi sherigini bilan chaqqonlik mashqida ishtirok etish, sheriklarni almashtirgan holda o'quv-trenirovka bellashuvlari bajariladi va h.k. Mana shu hamma mashqlar energiya ta'mino-tining u yoki bu mexanizmlarini rivojlantirish imkonini ta'minlaydi, karatechining mashqlanganligiga kompleks holda ta'sir

ko'rsatadi hamda bir vaqtning o'zida uning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshiradi.

Jismoniy tayyorgarlikning hamma ko'rsatilgan turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Trenirovka jarayonida biron-bir jismoniy tayyorgarlik turlariga yetar-licha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratini oshishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun trenirovka jarayonida ko'rsatilgan jismoniy tayyorgarlik turlarini optimal nisbatiga rioya qilish juda muhimdir. Uning son jihatdan ifodasi doimiy o'lcham hisoblanmaydi, balki kurashchilar malakasi, ularning alohida xususi-yatlari, trenirovka jarayoni davri va organizmning shu paytdagi holatiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

### **7.1.1. Kuch va uni rivojlantirish uslubiyati**

**Jismoniy sifat bo'lmish “kuch” deganda Karatechining raqib qarshiligini yengib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi.**

Kuchning quyidagi turlarini ajartish qabul qilingan:

- umumiy va maxsus,
- mutlaq va nisbiy,
- Tezkor
- portlovchan,
- kuch chidamliligi.

Umumiy kuch – bu Karatechining maxsus harakatlariga taalluqli bo'lma-gan holda sportchi tomonidan namoyon qilinadigan kuch. Maxsus kuch muso-baqa harakatlariga mos bo'lgan maxsus harakatlarda sportchi tomonidan namoyon bo'ladi. Mutlaq kuch sportchining juda katta xususiyatiga ega hara-katlarida namoyon bo'ladigan kuch imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Kurashda u kuch yordamida yakkama-yakka olishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Nisbiy kuch, ya’ni sportchining 1 kg vazniga to’g’ri keladigan kuch Karatechining shaxsiy og’irligini yengib o’tish imkoniyati ko’rsatkichi hisob-lanadi. Bu usullarning tezkorlik bilan bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

Tezkor kuch mushaklarning nisbatan kichik tashqi qarshilikni yengib o’tish bilan bog’liq harakatlarni tez bajarishga bo’lgan qobiliyatida aks etadi.

Portlovchan kuch qisqa vaqt ichida o’z shiddatiga ko’ra katta kuchlanish-larni namoyon qilish qobiliyatini tavsiflaydi.

Kuch chidamliligi – bu sportchining nisbatan uzoq vaqt davomida mushak kuchlanishlarini namoyon qilishga bo’lgan qobiliyatidir. Karatechining kuch imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo’llaniladi: takroriy kuchlanishlar; qisqa muddatli maksimal kuchlanishlar; tobora o’sib boradigan og’irliklar, zarbdor, birgalikda ta’sir ko’rsatish; variantililik; izometrik kuchlanishlar uslublari.

Takroriy kuchlanishlar uslubi shundan iboratki, sporchi mashqni “so’nggi nafasgacha” bajarishda maksimal og’irlikdan 70-80% ga teng bo’lgan og’irliklar bilan mashqlarni takroran bajaradi. Ushbu uslub kuch mashqini seriyalab bajarishni nazarda tutadi. Har bir seriya – “so’nggi nafasgacha”, hammasi bo’lib 3-4 seriya, seriyalar o’rtasidagi dam olish oralig’i – 3-4 min.

Takroriy kuchlanishlar uslubining bir turi dinamik kuchlanish uslubi hisoblanadi. U mashqlarni maksimumdan 20-30% og’irlikda chegaradagi tezlikda bajarish bilan tavsiflanadi. Bunda katta mushak zo’riqishi og’irlik vazni hisobiga emas, balki yuqori tezlikdagi harakat hisobiga erishiladi.

Qisqa muddatli maksimal kuchlanish uslubi hozirgi paytda mushaklarning mutlaq kuchini oshirish uchun eng samarali hisoblanadi. U chegaradagi va chegaraga yaqin bo’lgan og’irliklar bilan ishlashni nazarda tutadi. Mushaklar trenirovkasida maksimal kuchlanishlar uslubi trenajyorlarda va bitta yondashishda bitta-ikkita harakatlar yordamida, katta og’irlikdagi shtanga bilan bajariladigan mashqlarda (siltab ko’tarish, dast ko’tarish, o’tirib-turish) namoyon bo’ladi. Trenirovkada

hammasi bo'lib 3-4 ta yondashish bajariladi. Yondashishlar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 3-5 min.

Tobora o'sib boradigan og'irliklar uslubi bitta trenirovka mashg'ulotida singari keyingilarida ham qarshilik ko'rsatish hajmining asta-sekin o'sib borishini nazarda tutadi.

Trenirovka mashg'ulotida birinchi yondashishda sportchi 10 marta ko'tara oladigan (10 MT) og'irlikdan 50% ga teng og'irlik bilan boshlash tavsiya etiladi. Ikkinci yondashishda mashq 10 MT dan 75% og'irlik bilan bajariladi, uchinchi yondashishda esa – 10 MT dan 100% og'irlik bilan bajariladi. Trenirovka davomida hammasi bo'lib 3 ta yondashish amalga oshiriladi. Yondashishlar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 2-4 min. Har bir yondashishda mashq chega-radagi tezlik bilan aniq toliqib qolgunga qadar bajariladi.

Zarbdor uslub tushadigan og'irlikning kinematik energiyasi va shaxsiy gavda og'irligidan foydalanish yo'li orqali mushak guruhlarini zarbdor rag'batlantirishga asoslangan.

Mashqlanayotgan mushaklarning kamayayotgan og'irlik energiyasini yutib olishi mushaklarning faol holatga keskin o'tishiga, ish kuchlanishining tez rivojlanishiga yordam beradi, mushakda qo'shimcha kuchlanish imkoniyatini hosil qiladi. Bu keyingi itaruvchi harakat shiddati va tezkorligini hamda qoloq ishdan yengib o'tiladigan ishga tez o'tishni ta'minlaydi.

Oyoqlar portlovchan kuchini rivojlantirishning zarbdor uslubini qo'llash usuli sifatida ketidan balandlikka yoki uzunlikka sakrash bilan bajariladigan chuqurlikka sakrash mashqlarini aytish mumkin. Mashq 70-80 sm balandlikdan oyoq tizzalarini bir oz bukan holda yerga tushib, ketidan tez va shiddat bilan yuqoriga otilib chiqish orqali bajariladi. Sakrashlar seriyalab: 2-3 seriyada, har bir seriyada 8-10 tadan sakrashlar bajariladi. Seriyalar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 3-5 min. Mashq haftada ko'pi bilan ikki marta bajariladi.

Birgalikda ta'sir ko'rsatish uslubi shunga bog'liqki, Karatechining kuch imkoniyatlarini rivojlantirish bevosita ixtisoslashgan mashqlarni bajarish paytida sodir bo'ladi. Bir vaqtning o'zida Karatechining kuch qobiliyatları va texnik-taktik harakatlari rivojlantiriladi hamda takomillashtiriladi. Kurashda birgalikda ta'sir ko'rsatish uslubidan foydalanishga misol tariqasida shunday mashqlarni keltirish mumkinki, kurashchi bu mashqlarda o'z texnik harakatlarini og'irroq vazn toifasidagi raqib bilan takomillashtiradi.

Og'irlikning optimal o'lchamini aniqlab olish juda muhimdir. Haddan tashqari katta o'lcham harakat malakasi tarkibining buzilishiga olib keladi, bu oqibatda harakat texnikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Variantililik uslubi asosan turli vazndagi og'irliklar bilan maxsus mashq-larni bajarishni ko'zda tutadi. Har xil vazndagi sheriklar bilan mashqlar seriyalab bajariladi. Bitta seriyada avval og'irroq vazn toifasidagi raqib bilan 10-12 ta tashlash bajariladi, so'ngra teng vazndagi raqib bilan 15-16 ta tashlash, shundan keyin o'z vazn toifasidagi raqib bilan 10-12 ta tashlash bajariladi. Hammasi bo'lib 3 seriya bajariladi. Dam olish oralig'i – 3-4 min. Tezkor-kuch sifatlarini (me'yordagi, kichik) rivojlantirishda variantlilik uslubi ayniqsa samaralidir.

Usullarni ancha og'ir raqib bilan takomillashtirish alohida kuch imko-niyatlarini rivojlantirishga, kichik vazn toifasidagi raqib bilan esa – tezkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, oqibatda musobaqa mashqida natijaning oshishiga olib keladi.

Mushaklarning izometrik kuchlanishi uslubi turli mushak guruhlarining 4-6 sek davom etadigan statik maksimal kuchlanishini nazarda tutadi. Izometrik mashqlarning qiymati shundaki, ularning hajmi uncha katta emas, ko'p vaqt olmaydi, bajarilishi ancha oson. Bundan tashqari, ularning yordamida ma'lum bir mushak guruhlariga zarur holatlarda yoki gavda qismlarini bukish yoxud yozishning tegishli bo'g'im burchaklarida tanlab ta'sir ko'rsatish mumkin.

### **3.1.2. Tezlik va uni rivojlantirish uslubiyati**

Kurashchi tezligi – bu uning mumkin qadar qisqa vaqt ichida ayrim harakatlar va usullarni bajarish qobiliyatidir. Tezkorlik sifatini yaxshi rivojlan-tirmasdan kurashda yuqori natijalarga erishib bo’lmaydi. O’z raqibidan hatto sekundning yuzdan bir bo’lagiga tezroq harakat qiladigan kurashchi uning oldida muhim ustunlikka ega bo’ladi.

Kurashchi tezkorligi ko’p jihatdan uning asab jarayonlari harakat-chanligiga, sharoitlarga, raqib harakatlaridagi ko’rimsiz o’zgarishlarni sezishga bo’lgan sezgirlik unda qay darajada rivojlanganligiga, bellashuvda har safar yuzaga kelgan vaziyatni bir zumda qabul qilish va to’g’ri baholay olish malakasiga, taktik harakatlarni o’z vaqtida va aniq bajarishga bog’liq.

Tezkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi uslubllar qo’llaniladi:

Mashqlarni yengillashtirilgan sharoitlarda bajarish uslubi. Harakatlar va katta tezkorlik bilan bajariladigan alohida harakatlarni yengillashtirilgan sharoitlarda ko’p marta takrorlash. Masalan, usulni kichik vazn toifasidagi sherik bilan tezkorlikka e’tibor qaratgan holda bajarish. Mashqlarni yengil-lashtirilgan sharoitlarda bajarish tezligi bo’yicha oddiy sharoitlarda bajariladigan harakatlardan oshadigan o’ta tez harakatlarning bajarilishini rag’batlantiradi. Masalan, yugurish tezligini oshirish uchun qiyalangan yo’lkacha bo’ylab (tog’dan) yugurish qo’llaniladi.

Mashqni og’irlashtirilgan sharoitlarda bajarish uslubi. Kurashchi musoba-qalarda duch keladigan sharoitlardan ham ancha qiyin sharoitlarda maksimal tezkorlik bilan bajariladigan harakatlarni ko’p marta takrorlash. Masalan, og’ir vazndagi sherik bilan maxsus mashqlarni bajarish.

Takroriy kuchlanishlar uslubi. Ikki xil ko’rinishda qo’llaniladi:

- mashqlarni chegaradagi va chegara atrofidagi tezlik bilan bajarish;

- mashqlarni shunday sharoitda bajarishki, bunda chegaradagi kuch zo'riqishlari nisbatan yengil yukni katta tezlik bilan bir joydan ikkinchisiga o'tkazish yo'li orqali ta'minlanadi.

O'yin va musobaqa usullari ham katta ahamiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanish sportchining emotsional muhiti, ruhiy holati, raqobatchilik hissining o'zgarib turishi hisobiga tezkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha turtki (rag'bat) bo'lishi mumkin.

Karatechining tezkorlik sifatlarini tarbiyalash uchun maksimal tezlik bilan bajariladigan mashqlar (ular, odatda, tezlik mashqlari deb ataladi) qo'llaniladi. Tezlik mashqlarining texnikasi ularning chegaradagi tezliklarda bajarilishini ta'minlashi shart. Mashqlarni bajarish paytida asosiy kuchlanishlar bajarish usuliga emas, balki uning tezligiga qaratilishi uchun mashqlar shunchalik yaxshi o'rganilgan va egallangan bo'lishi kerak. Mashqlar davomiyligi shunday bo'lishi zarurki, bajarish oxiriga kelib tezlik, toliqishga qaramasdan, pasay-masligi shart.

Tezlik mashqlarini bajarish tartiblari katta ahamiyatga ega. Har bir mashq davomiyligi 20 sek dan oshmasligi lozim, dam olish oralig'i, mashqni takrorlash boshida, bir tomondan, Karatechining tiklanishishini ikkinchi tomondan, uning markaziy asab tizimini optimal qo'zg'aluvchanligini ta'minlashi optimal bo'lishi kerak.

Oraliqlarda dam olish faol bo'lishi lozim. Buning uchun tanaffuslarda katta kuchlanishlarni talab qilmaydigan turli xil mashqlar bajariladi.

### **3.1.3. Chidamlilik va uni rivojlantirish uslubiyati**

Karatechining chidamliligi – bu butun bellashuv davomida harakatlarni yuqori sur'atda bajarish va butun musobaqa davrida bir nechta bellashuvlarni shiddat bilan o'tkazish qobiliyatidir. Yuqori darajadagi chidamlilik kurashchiga katta trenirovka va musobaqa nagruzkalarini o'zlashtirishga, musobaqa faoliya-tida

o'zining harakat qobiliyatlarini to'laqonli ravishda amalga oshirishga imkon beradi.

Kurashda umumiy va maxsus chidamlilik farqlanadi.

Umumiy chidamlilik deganda sportchining sust shiddatdagi ishni uzoq vaqt bajarishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi.

Maxsus chidamlilik Karatechining musobaqa bellashuvi davomida turli xususiyatdagi harakatlar va amallarni har xil kuchlanishlar bilan hamda gavda-ning turli holatlarida yuqori sur'atda bajarish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

Karatechining musobaqa faoliyati ko'p qirrali va mushak tizimining ulkan ishi bilan bog'liq (kurashda statik va dinamik tartibda ishlovchi deyarli hamma mushak guruhlari qatnashadi). Shuning uchun chidamlilik nafaqat ishlayotgan mushaklarga yetkazib beriladigan kislorod miqdori bilan, balki mushaklarning o'zining uzoq vaqt davom etadigan kuchli zo'riqishli ishga bo'lgan moslashishi bilan aniqlanadi. Sportchi trenirovka va musobaqa faoliyatida ma'lum bir toliqishni yengib o'tgan taqdirdagina uning chidamliligi takomillashadi. Jismoniy toliqish va chidamlilik asosida mushak faoliyatining turli xildagi ta'minoti jarayonlari yotganligini bilgan holda ularning faoliyat ko'rsatish darajasini oshirish uchun ularga maqsadli ta'sir etish mumkin.

Trenirovka nagruzkasi, sportchi organizmiga ta'sir ko'rsatish chorasi sifatida, quyidagi tavsiflar bilan belgilanadi:

- mashq shiddati;
- mashq davomiyligi;
- takrorlash soni;
- dam olish oralig'i davomiyligi;
- dam olish xususiyati.

Bajarilayotgan mashq shiddati energiya ta'minotining aerob va anaerob jarayonlari nisbati xususiyatiga ta'sir ko'rsatadigan nagruzkaning eng muhim tavsifi hisoblanadi. To'rtta shiddat zonasini ajartish qabul qilingan: maksimal, submaksimal, katta, sust.

Mashq davomiyligi uni bajarish shiddatiga nisbatan teskari bog'liqlikka ega. Ish davomiyligining 20-25 sekunddan 4-5 minutgacha ko'payishi bilan uning shiddati keskin kamayadi. Mashqning energiya ta'minoti turi uning davomiyligiga bog'liq.

Anaerob-alaktat rejimdagi mashqlar davomiyligi 3-8 sekundga, anaerob-glikolitik rejimda 20 sekunddan 3 minutgacha hamda aerob rejimda – 3 minutdan va ko'proqqa teng.

Ko'p sonli tadqiqotlar natijalariga asoslanib, davomiyligi har xil bo'lган maksimal jismoniy nagruzkada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy energetik metabolizmga nisbatan hissasini aniqlash mumkin.

Tegishli natijalar 2-jadvalda kelitirligan.

*2-jadval*

#### **Davomiyligi har xil bo'lган maksimal jismoniy nagruzkada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy quvvat sarflanishiga ketadigan nisbiy ulushi**

Ish davomiyligi chegarasi	quvvatning chiqishi			Nisbiy ulush	
	anaerob jarayonlar	aerob jarayonlar	jami	anaerob jarayonlar, %	aerob jarayonlar %
10 sek	20	4	24	83	17
1 min	30	20	50	60	40
2 min	30	45	75	40	60
5 min	30	12	150	20	80

10 min	25	245	270	9	91
30 min	20	675	695	3	97
60 min	15	1200	1215	1	99

Mashqlarni takrorlash soni ularning organizmga ta'sir ko'rsatish darajasini belgilaydi.

Aerob sharoitlarda ishslashda takrorlash sonini ko'paytirish nafas olish va qon aylanish organlari faoliyatini yuqori darajada uzoq vaqt ushlab turishga majbur qiladi.

Anaerob rejmida mashqlarni takrorlash soni kislorodsiz mexanizmlarning tugashiga yoki markaziy asab tizimining qurshovda qolishiga olib keladi.

Dam olish oralig'i davomiyligi organizmning trenirovka nagruzkasiga bo'lgan javob reaksiyasi hajmi singari, uning xususiyatini ham aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bunda dam olish oraliqlarida sodir bo'ladigan tiklanish jarayonlari quyidagilardan iborat:

- tiklanish jarayonlari tezligi bir xil emas – avval tiklanish tez kechadi, so'ng sekinlashadi;
- turli ko'rsatkichlar har xil vaqtdan keyin tiklanadi (geteroxronlilik);
- tiklanish jarayonida ish qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarning fazali o'zgarishi kuzatiladi.

Dam olish oralig'i tiklanish uchun yetarli bo'lgan sust shiddatli mashqlarni bajarishda har bir keyingi urinish taxminan avvalgisiga o'xshagan ko'rinishda boshlanadi.

Ushbu holda dam olish oralig'ini kamaytirishda nagruzka ko'proq aerob nagruzkaga aylanadi, chunki odatda 3-4 minutga kelib vujudga kelayotgan nafas olish jarayonlari ham o'z kuchini saqlab qolgan bo'ladi.

Maksimal va submaksimal quvvatlari mashqlardagi dam olish oralig'ini kamaytirish nagruzkani anaerob nagruzkaga aylantiradi, chunki mashq takrorlangan sari kislorod qarzi oshib boradi.

Dam olish xususiyati mashqlar o'rtasida faol, sust va aralash bo'lishi mumkin.

O'qitishning kritik nuqtasiga yaqin bo'lgan tezlikda ishlash paytida faol dam olish nafas olish jarayonlarini yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi va ishdan dam olishga hamda aksincha holatga keskin o'tishning oldini oladi. Bu nagruzkani ko'proq aerob nagruzkaga olib keladi. Bundan tashqari, og'ir mehnatdan so'ng faol dam olish tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Mashqlar o'rtasida sust dam olish paytida sportchi, butkul tinch holatda bo'lib, hech qanday harakatlarni bajarmaydi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi: bajariladigan mashqlar hajmi va shiddatini oshirish, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan-oraliqli, takrorlash.

Hajmni oshirish uslubi shundan iboratki, jismoniy mashqlarni bajarish vaqt mashg'ulotlardan mashg'ulotga asta-sekin oshib boradi. Bu uslub mashg'ulotlar sonini ko'paytirishini nazarda tutadi.

Shiddatni oshirish uslubi jismoniy mashqlarni bajarish sur'ati, shuningdek butunlay mashg'ulot zichligini mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin oshirib borishni ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan uslub shundan iboratki, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Bunda past sur'atda o'tkaziladigan vaqt bo'laklari mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib, baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shundan iboratki, bunda jismoniy mashqlar bo'laklarga bo'linib (seriyalab), sust va faol dam olish oraliqlari bilan bajariladi. Trenirovka vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligiga, shuningdek kurash-chining mashqlanganlik darajasi hamda kayfiyatiga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi lozim.

Takrorlash uslubi shundan iboratki, sportchi bir mashg'ulotning o'zida yoki bir nechta mashg'ulotda hajmi va shiddatiga ko'ra bir xil bo'lgan mashqlarni takrorlaydi.

Sport trenirovksi jarayonida hamma uslublar bir-biri bilan turlicha uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalash samaradorligi ko'p jihatdan trenirovka jarayonining oqilona tuzilganligi bilan belgilanadi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka amal qilish va ularning ijobiy o'zaro ta'sir etishini ta'minlash juda muhimdir. quyidagi ketma-ketlikka rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- avval alaktat-anaerob mashqlar (tezkor va tezkor-kuch), so'ngra anaerob-glikolitik (kuch chidamliligi uchun) mashqlar;
- avval alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiyligi chidamlilik uchun);
- avval anaerob-glikolitik, keyin aerob mashqlar.

Agar mashqlar ketma-ketligi teskari bo'lsa, tez trenirovka samarasining o'zaro ta'siri salbiy bo'ladi hamda bunday mashg'ulot kam foyda beradi.

### **3.1.4. Chaqqonlik va uni rivojlantirish uslubiyati**

Karatechining chaqqonligi – bu harakatlarni nazorat qila olish, bellashuvda to'satdan o'zgarib turadigan vaziyatda tez hamda aniq yo'l tutish va tegishli harakatlarni oqilona bajarish qobiliyatidir.

Chaqqonlik deganda sportchining koordinatsion qobiliyatları yig'indisi tushuniladi. Shunday qobiliyatlardan biri yangi harakatlarni egallash tezligi, ikkinchisi – to'satdan o'zgaradigan vaziyat talablariga muvofiq harakatlarni tez qayta qurish hisoblanadi.

Chaqqonlik sportchini o'rgatish jarayonida rivojlantiriladi. Buning uchun yangi harakatlarni muntazam egallab borish lozim. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun har qanday mashqdan foydalanish mumkin, lekin ularda yangilik elementlari bo'lishi shart.

Chaqqonlikni rivojlantirishning ikkinchi yo'li mashqning koordinatsion murakkabligini oshirishdan iborat. Bunday murakkablik harakatlarni yuqori darajada aniq bajarish, ularning o'zaro muvofiqligi, to'satdan o'zgarib turadigan vaziyatga mosligiga bo'lgan talablarni oshirish bilan aniqlanishi mumkin.

Uchinchi yo'li – bu nooqilona mushak kuchlanishi bilan kurashish, chunki chaqqonlikni namoyon qilish ko'p jihatdan mushaklarni zarur hollarda bo'shash-tirish malakasiga bog'liq.

Kishi koordinatsiyasini rivojlantirishning to'rtinchi yo'li – uning gavda muvozanatini ushlab turish qobiliyatini oshirishdir. Bunday qobiliyatni rivojlantirishning bir nechta usullari mavjud:

- 1) muvozanatni ushlab turishni qiyinlashtiruvchi harakatlardagi mashqlar;
- 2) akrobatika va gimnastika mashqlari;
- 3) hamma tekisliklarda boshni tez harakatlantirish yordamida bajariladigan mashqlar.

A.I. Yarotskiy (1971) kompleksiga (majmuasiga) beshta mashq kiradi: boshni chapga va o'ngga burish; boshni oldinga va orqaga egish; boshni yon tomonlarga egish; soat millari bo'ylab aylanma harakatlar; soat millariga qarshi tomonga aylanma harakatlar. Bu mashqlar tez sur'atda kuniga uch marta 10 minutgacha bajariladi.

Kurashchi chaqqonligini rivojlantirishning hamma vositalarini ikkita bo'limga ajratish maqsadga muvofiqdir: umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari va maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari.

Umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari umuman harakatlanish tajribasi va harakat koordinatsiyasini boyitishga qaratilgan. Maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari Karatechining o'ziga xos maxsus harakatlanish koordinatsiyasini hamda musobaqa faoliyatining favqulotda sharoitlarida o'zining

o'z harakatlarini baholay olish va qayta qurish qobiliyatini takomil-lashtirishga qaratilgan.

### **3.1.5. Egiluvchanlik va uni rivojlantirish uslublari**

Egiluvchanlik – bu Karatechining katta amplitudada harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Egiluvchanlik bo'g'imdagi harakatchanlik bilan aniqlanadi. U, o'z navbatida, bir qator omillarga bog'liq: bo'g'im sumkalarining tuzilishi, paylar, mushaklar cho'ziluvchanligi va ularning cho'zilish qobiliyati. Bir nechta egiluvchanlik turlari mavjud.

Faol egiluvchanlik – bu shaxsiy mushak kuchlanishlari hisobiga hara-katlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir.

Sust egiluvchanlik – bu tashqi kuchlar: og'irliliklar, raqib harakatlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir. Sust egiluvchanlik hajmi faol egiluvchanlikning tegishli ko'rsatkichlaridan yuqori.

Dinamik egiluvchanlik – dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Statik egiluvchanlik – statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik – turli yo'naliishlarda eng yirik bo'g'imdarda katta amplituda bilan harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Maxsus egiluvchanlik – Karatechining texnik-taktik xususiyatlarga tegishli bo'g'implar va yo'naliishlarda harakatlarni katta amplituda bilan bajarish qobiliyatidir. Cho'ziltiruvchi mashqlar: oddiy, prujinali harakatlar, o'zini ushlagan holda siltanishli, tashqi yordam bilan bajariladigan harakatlar egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Bunday mashqlar bilan shug'ullanish paytida bir qator uslubiy shartlarni bajarish lozim:

- 1) mashqlarni boshlashdan oldin albatta badan qizdirish mashqlarini kiritish;
- 2) muayyan maqsadlarni oldinga qo'yish, masalan, gavda yoki bo'yumning ma'lum bir nuqtasiga qo'lni tekkazish;
- 3) cho'ziltirish mashqlarini ma'lum bir ketma-ketlikda seriyalab bajarish: qo'llar uchun, gavda uchun, oyoqlar uchun;
- 4) cho'ziltirish mashqlari seriyalari orasida bo'shashtirish mashqlarini bajarish;
- 5) mashqlarni bajarish paytida asta-sekin ularning amplitudasini oshirish;
- 6) mashqlarni bajarishda shuni hisobga olish lozimki, harakatchanlikni rivojlantirishning eng asosiy uslubi – bu takrorlash uslubi hisoblanadi.

Bir-ikki oyda har kuni ikki marta shug'ullanuvchilarning alohida qobi-liyatlariga qarab 25-50 takrorlashdan iborat me'yordagi cho'ziltirishga qaratilgan mashqlardan tashkil topgan mashg'ulotlar davomida egiluvchanlik ancha o'sishi mumkin.

### **3.1.6. O'smir yoshdagi Karatechining jismoniy tayyorgarligi**

O'smir yoshdagi jismoniy tayyorgarlik to'g'ri qaddi-qomatni, harakatlanish malakalarini shakllantirish, har tomonlama jismonan takomillashtirish, kurashda texnik harakatlarni egallash uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

12-14 yoshda tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. 15-16 yoshdagi o'smirlarda kuch rivojiana boshlaydi va tezkorlik-kuch mashqlarini bajarishga qobiliyat namoyon bo'ladi. 16-18 yoshda ko'p kuch va tezlik talab etiladigan mashqlar osonroq o'zlashtiriladi, chidam-lilikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O'smir kurashchilarni tayyorlashda shularni e'tiborga olish juda muhimdir.

Chidamlilikni boshqa jismoniy sifatlar bilan birga rivojlantirish zarur. Professor V.P. Filinning (1980) ta'kidlashicha, bu yoshda chidamlilikka qara-tilgan uzoq

vaqt davom etadigan va bir tomonli trenirovka o'smirlarga xos bo'lgan tezkorlik nagruzkalariga moslashishni pasaytiradi.

12-15 yoshda kuchni rivojlantirish asosan o'z massasi og'irligi, to'ldirma to'plar, gantellar, gimnastika tayoqchalari, sherik (turli og'irlikdagi) bilan hamda turli gimnastika sport anjomlarida mashqlar bajarish yordamida amalga oshirilishi lozim.

16-18 yoshdagi kurashchilarda kuchni rivojlantiruvchi mashqlar sport anjomi og'irligini oshirish, dastlabki holatni o'zgartirish, mashq bajarish vaqtini uzaytirish, mashqlar orasidagi dam olish vaqtini kamaytirish hisobiga murakkablashtiriladi.

Yosh o'smirlarning chidamlilagini rivojlantirishda ehtiyyotkor bo'lism lozim (o'rtacha nagruzkalar, kichik me'yor yoki dam olish uchun tanaffusli o'quv-trenirovka bellashuvlaridan iborat mashqlar). Nagruzkalarga moslashib borgan sari dam olish tanaffuslari qisqartiriladi. Masalan, tik turishda 2x2 kurashida (navbatma-navbat hujumlar va himoyalar) 3 minutlik tanaffus asta-sekin 1 minutgacha qisqartiriladi. Parterda 2x2 bo'lib 1 minut tanaffus bilan navbatma-navbat kurashishda trenirovka vaqtini 3x3 gacha uzaytiriladi. Keyinchalik kurash sur'atini kuchaytirish mumkin. Chidamlilikni rivojlantirish uchun chegaralangan joyda bir tomonlama qarshilik bilan (biri faqat hujum qiladi, ikkichisi faqat himoyalanadi), parterdan yuqori yoki tik turishga chiqish bilan kurash o'tkaziladi. Bu mashqlar qiyin holatlardan chiqib ketish yo'lini topishga o'rgatadi.

Professor V.P. Filin tadqiqotlarining ko'rsatishicha 13 yoshda bo'g'imlarda harakatchanlik yangidan oshadi, 15 yoshda u eng katta hajmga ega bo'ladi, 16-17 yoshda harakatchanlik ko'rsatkichlari kamayadi. Shu sababli o'smirlik yoshida egiluvchanlik va bo'g'imdagi harakatchanlik mashqlari majburiydir.

12-18 yoshda egiluvchanlik va bo'g'imdagi harakatchanlik buyumlarsiz hamda kichik og'riqlar bilan (gimnastika tayoqlari, gantellar, to'ldirma to'plar) bajariladigan faol-sust xususiyatiga ega mashqlar orqali yoki asta-sekin harakat

amplitudasini kuchaytiruvchi va kengaytiruvchi sherik yordamida rivojlan-tiriladi. Shuningdek qaddi-qomatni shakllantirish mashqlari kattalarga nisbatan ko'p qo'llaniladi.

Shunday qilib, o'smirlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi ko'pgina vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Yosh o'smirlar bilan ko'proq o'yin uslubi qo'llaniladi, mashg'ulotlar turlicha va ehtirosli o'tkaziladi. Hamma mashqlar asosiy mashg'ulot shakli – darsda bajariladi.

O'smir Karatechining jismoniy tayyorgarligini maqsadli amalga oshirish uchun kurashdagi o'quv-trenirovka jarayonida saf (tartibli) mashqlar (saflanish, buyruqlarni bajarish, qadam tashlab va yugurib harakatlanishlar) qo'llaniladi. Ularning maqsadi – kurash mashg'ulotini tashkil etish, to'g'ri qaddi-qomatni shakllantirish, intizom, o'zaro munosabat va tartibni tarbiyalashdir. Saf mashq-lari darsning kirish, tayyorlov va yakuniy qismida mashqlarni bajarish uchun guruhlarni tashkil qilish, saflantirish va qayta saflanish uchun, shuningdek nagruzkadan so'ng zo'riqishni bartaraf etish maqsadida bajariladi.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar qatoriga oddiy gimnastika (qo'llar, oyoqlar, gavda, og'irliklar bilan, og'irliklarsiz, buyumlar bilan va buyumlarsiz hamda sheriklar bilan) mashqlari va og'ir atletika, eshkak eshish, sport o'yinlari kabi sport turlaridagi ba'zi mashqlar kiradi. Bunday mashqlar Karatechining jismoniy rivojlanishini yaxshilaydi, harakat malakalari zahirasini kengaytiradi, organizmning funksional imkoniyatlarini oshiradi, ish qobiliyatining tiklanishiga yordam beradi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar bilan bir vaqtida asab-mushak kuchlanishlari xususiyati va o'smir organizmining ish tartibiga ko'ra o'xshash bo'lgan mashqlarni ko'proq qo'llash zarur. Turli sport turlaridan olingan mashqlar, ularni bajarish xususiyati va shartlariga qarab, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda turli pedagogik vazifalarni hal etishga imkon berdi. Asosan kuch, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik va chaqqonlikni tarbiyalashga qaratilgan mashqlarni ajratish qabul qilingan. Og'irliklar bilan (tayoqlar, gantellar, to'ldirma to'plar va

h.k.) gimnastika mashqlarini ko'p marta bajarish kuch chidamliligin rivojlantiradi. Ushbu mashqlarni katta tezlikda qisqa vaqt ichida bajarish tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir mashq ma'lum bir sifatni yoki bir guruh sifatlarni rivojlantiradi. Masalan, sherik qarshiligida yoki shtanga bilan bajariladigan mashqlar, o'z og'irligi bilan tortilish hamda qo'llarni bukib-yozish mashqlari kuchni; kesishgan joyda yugurish – chidamlilikni; katta tezlik bilan bajariladigan gimnastika mashqlari, qisqa masofalarga yugurish – kurashda harakat tezligini tarbiyalashga yordam beradi. Basketbol o'yini chaqqonlik, chidamlilik va tezkorlikni kompleks holda tarbiyalashga imkon yaratadi.

Yuqori emotsiyonal qo'zg'alishda katta bo'limgan shiddat bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar organizm ish qobiliyatini, ayniqsa shiddatli mashg'ulotlar o'tkazilgandan so'ng asab tizimini tiklashga yordam beradi. Ular ertalabki badan tarbiya vaqtida va trenirovka mashg'u-lotlarida darsning birinchi bo'lagida (tayyorlov qismida) hamda asosiy qism oxirida qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'rmonda, dalada, daryo bo'yida (suzish, eshkak eshish va to'p o'ynash bilan) jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni tashkil qilib turish shart.

Kurash mashg'ulotlarida katta jismoniy nagruzkadan so'ng organizmni nisbatan tinch holatga keltirish uchun o'smirlarni mushaklarni bo'shashtirishga, nafas olishni tinchlantirishga (o'ta bo'shashtirilgan mushaklarni silkitish harakatlari, chuqur nafas olish uchun o'pka qafasini kengaytiruvchi mashqlar va h.k.) qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish zarur.

Mushaklarni bo'shashtirishga qaratilgan mashqlar hatto bellashuv jarayonida ushslash va zo'riqishdan holi bo'lgan qisqa vaqt ichida kuchning yanada tez tiklanishiga yordam beradi.

## **3-BOB. KARATE TURLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIK TUG'RISIDA**

### **TUSHUNCHА**

#### **3.1. Texnik tayyorgarlik**

##### **3.1.1. Karatechilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik**

Karatening texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natija-lariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darjasini bilan tavsiflanadi.

Karatechining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi ajratiladi. Umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko'nikmalarini egallahsga, maxsus texnik tayyorgarlik sport Karateida texnik mahoratga erishishga qaratilgan.

Karateda texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatini o'zgaruvchan holat sharoitlarida harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish.

Sport texnikasini takomillashtirish Karatechilarning ko'p yillik tayyor-garligi davomida amalga oshiriladi va u tanlangan Karateda texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin Karate sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallah tushuniladi.

Texnik mahoratni takomillashtirishning uchta bosqichi ajratiladi;

1. Izlanish.
2. Barqarorlashtirish.

### 3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, uni amaliyotda egallash shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizimiga kiruvchi ayrim harakatlarni o'rganishga (yoki qayta o'rganishga) qaratilgan.

Ikkinci bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakallarni takomillashtirish, ularning asosiy musobaqalar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variantliligi, barqarorligi, ishonchliligi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Karate texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variantivligiga erishish, musobaqa sharoitlarida ularning samaradorligini oshirish.

2. Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyati talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Birinchi vazifani hal etish uchun tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi, organizmning turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi qo'llaniladi. Ikkinci vazifani hal etish uchun - texnik harakatlarni bajarish sharoitlarini yengillashtirish uslubi, birga (sopryajenny) ta'sir ko'rsatish uslubi qo'llaniladi.

Texnik usullarni bajarishda tashqi vaziyatni murak kablashtirish uslubi quyidagi bir qator usullarda amalga oshiriladi:

1. Shartli raqib qarshiligining uslubiy usuli sportchiga texnik harakatni bajarish tuzilmasi va maromini takomillashtirishga, barqarorlik va natijalilikka tezroq erishishga yordam beradi.

2. Qiyin dastlabki holatlar va tayyorgarlik harakatlarining uslubiy usuli. Masalan, egilab tashlashni takomillashtirshda ushlab olish joyi va Karatechilar o'rtasidagi masofani o'zgartirish lozim.

3. Usullarni bajarish uchun joyni cheklash uslubi malakani takomillashtirshda mo'ljallangan shartlarini murakablashtirishga yordam beradi. Karateda, kichraytirilgan o'lchamdagagi gilamlar qo'llaniladi.

Texnik harakatlarning bajarilishini qiynlashtiruvchi sportchi organizmining turli holatlarida mashklarni bajarish uslubi ham turli xildagi usullarda amalga oshiriladi:

Harakatni ancha toliqqan holda bajarishning uslubiy usuli. Bu holda katta hajm va shiddatdagi jismoniy nagruzkadan keyin sportchiga texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar taklif qilinadi.

Nazorat o'quv-trenirovka bellashuvlari o'tkazilgandan so'ng katta emotsiyal zo'riqish holatida harakatrlarni bajarishning uslubiy usuli.

Vaqti-vaqt bilan ko'rishni ta'qiqlash yoki cheklashishning uslubiy usuli harakatlanish malakasining retseptorli-analizatorli tarkibiga tanlab ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Musobaqa vaziyatida ayrim usullar yoki harakatlarni majburan bajarish usuli malakani takomillashtirish jarayonida Karatechi faolligini rag'batlantiradi. O'quv-trenirovka bellashuvlarida Karatechi himoyaning texnik usullari, yoki aksincha, hujum usullariga ko'proq diqqatni to'plashga ko'rsatma oladi.

Texnik harakatlarni bajarish shartlarini yengillashtirish uslubi bir qator uslubiy usullardan iborat:

1. Harakat elementini ajratish uslubiy usuli. Masalan, erkin Karateda - beldan yuqori qismdan ushlab olishni amalga oshirish.

2. Mushak zo'riqishini pasaytirish uslubiy usuli Karatechiga harakatlanish malakasidagi ayrim harakatlarga yanada aniq tuzatishlarni kiritishga yordam

beradi. Texnik harakatlarni takomillashtirish uchun Karatechiga ancha yengil vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

3. Tezkor axborot uslubiy usuli zarur harakat kengligi, maromi, sura'tini tez egallab olishga yordam beradi, bajariladigan harakatni anglash jarayonini faollashtiradi.

Texnik harakat to'g'risidagi tezkor axborot uchun videokamera va videomagnitofondan foydalanish qulaydir.

Birga ta'sir ko'rsatish uslubi sport trenirovkasida o'zaro birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va harakat malakalarini takomillashtirishga asoslangan uslubiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu holda usullarni takomillashtirishda Karatechiga ancha og'ir vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

### **3.1.2. Texnik harakatlarni amalga oshirishning umumiyligi asoslari**

**Karate texnikasi – bu** musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlar yig'indisidir.

Usullar – bu maqsadga yo'naltirilgan hujum harakatlari bo'lib, ular yordamida Karatechi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism – usul qo'llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqorida, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo'linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog'liq. Ikkinci qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda - o'tkazishlar, tashlashlar, ag'darishlar; parterda – o'girishlar va parterda tashlashlar bo'lishi mumkin.

Karate usullarni amalga oshirish paytida bir vaktning o'zida oyoklar bilan turli harakatlar ham bajariladi, ya'ni bular – challishlar, qoqishlar, ilishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan ilib otishlar. Bu harakatlarning ko'pchiligi orqadan, oldindan, yondan, ichkaridan, tashqaridan bajarilishi mumkin.

Bir xildagi ushslash bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o’zi turli ushslashlar bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo’ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag’darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo’l, gavda, qo’l va bo’yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Karatechi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo’llashi mumkin. Usul yoki uning bir qismini aldamchi harakat sifatida qo’llab, Karatechi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg’itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar – bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo’lib, ular yordamida Karatechi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. qarshi hujum uyushtirayotgan kupashchi bir zumda to’g’ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun o’z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari bilan aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalanishlar – bu raqibning usullarni (qarshi usullarni) bajarishiga to’sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalanishlar dastlabki va bevosita himoyalanishlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalanish oldindan, ya’ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi.

Bevosita himoyalanish raqib hujumini to’xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalanish samaradorligi uning o’z vaqtida bajarilishiga bog’liq. Bevosita himoyalanish usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirida amalga oshirilishi mumkin.

Hamma texnik harakatlar Karatechilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko’prik.

Tik turish – bu Karatechining holati bo’lib, unda u oyoqlarda tik turadi. O’ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning xar biri, o’z navbatida, baland, o’rta

va past bo'lishi mumkin. Tik turishda Karateish yaqin, o'rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin.

### **3.1.3. Karatechining texnik mahoratini oshirish yo'llari**

Karatechining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta maxorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo'ladi.

Karate texnikasi kurahchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Karateda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu Karatechi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanishlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullar-ning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

